

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI  
PEDAGOGIKA FAKULTETI

*Maktabgacha ta'lif yo'nalishi*

*4-kurs talabasi*

**IBRAGIMOVA LOLA**

***BITIRUV MALAKA VIY ISHI***

**MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALAR NUTQINI  
O'STIRISHDA BOLALAR ADABIYOTIDAN FOYDALANISH**

**Ilmiy rahbar: Fayzullayeva G.Sh.**

*Samarqand - 2012*

**REJA:**

KIRISH .....	-3
I BOB. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutqining o'sishida bolalar adabiyotining o'rni.....	-9
1.1. Bolalarni badiiy nutqqa o'rgatish bo'yicha ish mazmuni hamda vazifalari.....	-9
1.2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni badiiy adabiyotni hikoya qilib berishga o'rgatishda foydalaniladigan usullar .....	-14
II BOB. Bolalarda mustaqil badiiy nutqni shakllantrishning hamda badiiy nutq faoliyatiga o'rgatishning amaliy asoslari.....	-36
2.1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishga qoyiladigan talab va vazifalar.....	-36
2.2 Tayyorlov guruhi bolalarini hikoya qilishga o'rgatish bo'yicha dars ishlanmasi....	-41
XULOSA.....	-47
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	-49

**REJA:**

**KIRISH**

I BOB. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutqining o'sishida bolalar adabiyotining o'rni.

1.1. Bolalarni badiiy nutqqa o'rgatish bo'yicha ish mazmuni hamda vazifalari.

1.2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni badiiy adabiyotni hikoya qilib berishga o'rgatishda foydalaniladigan usullar.

II BOB. Bolalarda mustaqil badiiy nutqni shakllantrishning hamda badiiy nutq faoliyatiga o'rgatishning amaliy asoslari.

2.1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishga qoyiladigan talab va vazifalar.

2.2 Tayyorlov guruhi bolalarini hikoya qilishga o'rgatish bo'yicha dars ishlanmasi.

**XULOSA**

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

**KIRISH.**

Hozirgi kunda mustaqil respublikamiz sharoitida xalq ta'limi o'ziga xos rivojlanish davrini boshdan kechirmoqda. Bu o'ziga xoslik, eng avvalo,

ta’lim-tarbiya mazmunini milliylashtirish, ya’ni o‘zimizning juda boy o‘tmish tariximiz, madaniyatimiz, fanimiz, tilimizda o‘z mohiyati bilan yuksak insoniy-axloqiy mazmunga ega bo‘lgan jarayonda yosh avlodni o‘qitish baxtiga muyassar bo‘ldik.

Yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash, avvalo, bu sifatlarni o‘zimizda mujassamlashtirishni talab qiladi<sup>1</sup>. Shu bilan birga ta’lim-tarbiyaga yangicha yondashish, yangicha uslub va mazmun, shakl va vositalardan foydalanishni ham taqozo qiladi. Eski uslub bilan vazifalarni amalga oshirib bo‘lmaydi. Ko‘pgina olimlarning tajribalari shuni ko‘rsatadiki, biz bu masalalarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirishimiz mumkin.

Har qanday davlat taraqqiyoti ta’lim-tarbiya sohasida erishilgan yutuqlar, uning jahon andozalariga mosligi va amaliy hayotda qanday o‘rin tutishlariga bog‘liq. Sifat o‘zgarishlari esa mazkur sohada ijobiy yangiliklar krita olishi bilan belgilanadi. O‘z navbatida bunday yangilikni kiritish – immitatsion jarayon bo‘lib, bu – ta’limda samaradorlikka erishishdan iborat bo‘ladi. Bu borada maktabgacha ta’lim sohasida bolalarning nutqini o’stirishda bolalar adabiyoti vakillari, janrlari bilan tanishtirish va yangi pedagogik texnologiyalar asosida hikoya qilishga o’rgatish bo'yicha olib boriladigan o‘zgarishlar alohida ahamiyat kasb etadi.

**MUAMMONING DOLZARBLIGI.** Kelajak avlod tarbiyasida badiiy adabiyotni teran anglash, mustaqillik qobiliyatlarini shakllantirish va mustaqil ishslash, izlanishlarini odat tusiga kiritish, hayotda uchraydigan voqeа-hodisalarning mohiyatini tez anglaydigan zukko va bilimdon qilib tarbiyalash aynan maktabgacha ta’limdan boshlanishi kerak. Bunday maqsadlarni amalga oshirish DTS dasturlarida ko‘zda tutilgan bo‘lib, fanlarni o‘qitishda ular orasidagi aloqadorlikning ta’minlanishi bilan amalga oshirilib boriladi. Barkamol avlodni tarbiyalashda esa badiiy adabiyot borasidagi

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent-2008. 34-bet

nutqiy bilimdonlikning ahamiyati juda katta. Maktabgacha ta’lim muassasalarida turli yosh guruhlarida hamda savod o’rgatish davrida, shuningdek, keyingi sinflarda o’quvchilarni o‘qishga o’rgatish va o’qish darslarini olib borish jarayonida ularni badiiy adabiyot bilan tanishtirish ustida ishslash davomida bolalarning nutqini o’stirish, har tomonlama keng fikrlay olishga imkoniyat yaratish hamda dars mashg‘ulotlari davomida interfaol usulda bolalarni mustaqil ravishda turli mavzularda gap tuza olishga o’rgatish va gap ustida ishslash, o’zi tuzgan gaplari asosida hikoya qilishga o’rgatish bo‘yicha ayrim dars mashg‘ulotlarini kiritish bugungi kun taraqqiyotining dolzarb muammolaridan biridir. Bolalar bilan bolalar badiiy adabiyoti ustida ishslash ishlari hozirgi vaqtda maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlab, avval nutq o’stirish, keyinchalik savod o’rgatishga tayyorlov davrida va boshlang’ich ta’limning keyingi yillarida o’qish mashg‘ulotlari orqali amalga oshiriladi. Bu borada esa ko‘pgina tadqiqotlarda, asosan, xalq og‘zaki ijodiga tayanib o’quvchilarning nutqini o’stirish orqali hikoya qilish bilan tanishtirish kuzatiladi. Shu tomondan bolalarni maktabgacha ta’lim jarayonida o’qish darslarini olib borish hamda bunda yangi pedagogik texnologiyalar asosida bolalar badiiy adabiyoti ustida ishslashning yangi texnologiyalarini yaratish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

**MUAMMONING ISHLANGANLIK DARAJASI.** Bugungi kunga qadar bolalar bolalar badiiy adabiyotini o’rgatish va ularning nutqini o’stirish ustida ishslash borasida ko‘plab ishlar amalga oshirilgan. Chunki maktabgacha ta’limda bola nutqi rivojlantirilsa, ular hikoya qilish bilan tanishtirilsa, bolalar adabiyoti vakillari hamda badiiy adabiyot ustida ishslash tizimi ma’lum me’yorga keltirilsa, bola hayotining keyingi bosqichlarida bog‘lanishli nutq bilan bog‘liq masalalar biroz bartaraf etilgan bo‘ladi. Bolalarni hikoya qilishga o’rgatish ustida ishslash ravon nutqning turi sifatida

bolalarga monologik nutq tarzida besh yoshdan boshlab, o‘rgatilib borilishi juda ko‘plab ilmiy adabiyotlarda ta’kidlangan. Keyingi davrda bolalarni maktab ta’limiga tayyor qilib yetkazish maqsadida, ularga o‘qishni o‘rgatish va bu jarayonda hikoya qilishga o‘rgatish ustida ishslash yuzasidan ham alohida ilmiy adabiyotlar nashr ettirilgan va ularda ushbu mavzuni keng qamrovli o‘rganishga sharoit yaratilgan. Bunda, maktabgacha ta’lim sohasida o‘zining qarashlari bilan alohida ahamiyatga ega bo‘lgan Q.Shodiyevning o‘qishga o‘rgatishda gap ustida ishslash yuzasidan bildirgan fikrlarini, shu bilan birga F.R.Qodirova, M.R.Qodirova<sup>2</sup> va boshqalarni nutq o‘stirishda badiiy adabiyot ustida ishslash va hikoya qilishga o‘rgatish haqidagi qarashlarini, S.Jumaboyevning bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish sohasidagi izlanishlarini, boshlang’ich ta’lim sohasida Abdullayeva K., G’apparova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G., Matshonov S., Safarova R., Qosimova K., G’ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh.<sup>3</sup> kabilarni alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Biz ushbu bitiruv malakaviy ishimizda o‘quvchilar bilan yangi pedagogik texnologiyalar orqali hikoya qilishga o‘rgatish ustida ishslashning yangi jarayonlarini dars mashg‘ulotlari asosida ishlab chiqishga harakat qildik.

**TADQIQOTNING OB’EKTI.** Ishning ob’ekti maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, chop etigan ilmiy adabiyotlar, maktabgacha ta’lim uchun mo‘ljallangan va xalq og‘zaki ijodidan badiiy adabiyotlar, darsliklar va maqolalardan iborat bo‘lib, ya’ni mashg‘ulotlarni o‘tish jarayonida bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish ustida ishslash bilan birga ularning nutqini o‘stirishda noan’anaviy dars mashg‘uloti turlaridan foydalanish hisoblanadi.

---

<sup>2</sup>Qodirova F., Qodirova M. Bolalar nutqini o‘stirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent – 2006 yil.

<sup>3</sup> Qosimova K., Matjonov S., G’ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. T., TDPU. 2008.

**TADQIQOTNING PREDMETI.** Maktabgacha ta’lim muassasalarida badiiy adabiyot mashg’ulotlarini o’tish asosida hikoya qilishga o’rgatishda bolalar badiiy adabiyoti vakjillari bilan tanishtirish hamda hikoya qilishga o’rgatishning turli usullari ustida ishlashning eng afzal tomonlarini ta’minlovchi innovatsion texnologiyalaridan foydalanish tadqiqotning asosiy predmetidir. Shu bilan bir paytda bolalarni o‘qishga o’rgatishda hikoya qilishga o’rgatish ustida ishlash dolzarb metodik manba ekanligini aniqlash, umumiy holatda maktabgacha ta’limda bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish ustida ishlashning mavjud holatini o’rganish, ularning didaktik asosini belgilash ham mavzuning predmeti hisoblanadi.

**TADQIQOTNING MAQSADI.** Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning barcha guruh bosqichlarida muhim o‘rin tutadigan bolalarni yangi pedagoik texnologiyalar asosida badiiy adabiyot bilan tanishtirish ustida ishlash nazariyalarini o’rganish, ularni amalda hayotga tadbiq etish tadqiqotimizning maqsadi hisoblanib, maktabgacha ta’limda bolalarni o‘qishga o’rgatish dars mashg’ulotlarini o’tish bilan birga badiiy adabiyotni hikoya qilishga o’rgatish ustida ishlashning yangidan yangi usullarini ishlab chiqish ham asosiy maqsad qilib qo‘yilgan.

**TADQIQOTNING VAZIFASI:** Yuqorida oldimizga qo‘ygan maqasadimizdan kelib chiqib:

1. Maktabgacha ta’limda turli yosh guruhi davrlarida bolalarni badiiy adabiyotga o’rgatishda hikoya qilishga o’rgatish ustida ishlash, hikoya qilishga o’rgatish jarayoni turli usullari, hikoyaning turlari haqida tasavvurga ega bo‘lishlari uchun qanday usullardan foydalanish, qanday ko‘rsatmalar va qo’llanmalarni ishlatish zarurligini yoritish.
2. Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish ustida ishlashda olib boriladigan mashg’ulotlar turini tahlil qilish.

3. Mavzuga oid ilmiy metodik manbalarni o‘rganish va tahlil qilish asosida maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni badiiy adabiyot janrlarini mustaqil o’qishni tashkil etish orqali hikoya qilishga o‘rgatishda yangi pedagogik texnologiyalar ustida ishlash va uni tahlil qila olish dolzarb nuammo ekanligini aniqlash.
4. Maktabgacha ta’lim muassasalari bolalarini badiiy adabiyot mashg’ulotlarida hikoya qilishga o‘rgatish ustida ishlashga yo‘naltirilgan yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars mashg‘uloti ishlanmalarini yaratish.

**TADQIQOT ISHINING ILMIY FARAZI.** Hozirgi vaqtda o‘qituvchi-pedagoglar zimmasiga har bir fan asoslarini o‘rgatishning ilmiy–nazariy saviyasini ko‘tarish, o‘qitish usullarini takomillashtirish orqali mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish va sifatini yaxshilashdek dolzarb vazifalar ko‘tarilganki, bu vazifalarni amalga oshirishda yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyatga keng joriy qilish orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkin bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim muassasasi bolalarining yangi pedagogik texnologiyalar asosida bolalar badiiy adabiyot bilan tanishtirish ustida ishlash bo‘yicha nutqiy bilimdonligini rivojlantirishda aniq mazmundagi modulli texnologiyalar, ta’lim turlari, vositalari, metodlari asosida tashkil etish, ularga nutq o‘sirish tushunchalarini taqdim etishning izchil tizimini yaratish ko‘zda tutiladi.

**TADQIQOTNING METODOLOGIK ASOSLARI.** O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, prezidentimiz I.A.Karimovning asarlari va ma’ruzalarida bayon qilingan ta’limni isloh qilish, maktabgacha ta’limni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar, qarashlar, ta’lim jarayonini takomillashtirishga yo‘naltirilgan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, ilmiy-metodik manbalar, bolalar badiiy adabiyot vakillari

bilan tanishtirish, o'quvchilarni hikoya qilishga o'rgatish va nutq o'stirish bo'yicha boshlang'ich ta'lim sohasida olib borilgan ishlar, tadbirlar, dars mashg'ulotlari bitiruv malakaviy ishimizning metodologik asosini tashkil etadi.

**TADQIQOT ISHINING ILMIY AHAMIYATI.** Ushbu bitiruv malakaviy ishini bajarish natijasida maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan o'qish darslarini o'tish mobaynida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ularni badiiy adabiyot asosida hikoya qilishga o'rgatish ustida ishlash bo'yicha dars mashg'ulotlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan dars mashg'uloti turlari, interaktiv tipdagi o'quv materiallarini belgilab berish usullari ko'rsatib berildi. Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida badiiy adabiyot bilan tanishtirish ustida ishlashda olib boriladigan o'quv premetlari bo'yicha o'quv dasturlari va darsliklarini, dars ishlanmalariga oid yangi tushunchalari bilan boyitishning didaktik asoslari ko'rib chiqildi hamda ilmiy-metodik tavsiyalar bilan boyitildi.

**TADQIQOT ISHINING AMALIY AHAMIYATI.** Tadqiqot natijasida aniqlangan ilmiy-amaliy yondashuvlar, ishlab chiqilgan tavsiyalardan bolalarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida badiiy adabiyot bilan tanishtirish ustida ishlash mashg'ulotlarini boyitish, maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan turli o'quv premetlarini takomillashtirish hamda bolalarning badiiy nutqini takomillashtirishda, ularning bilimini o'stirishda, malakasini oshirishda keng foydalaniladi.

**BITIRUV MALAKAVIY ISHINING TARKIBIY TUZILISHI.** Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, har bir bobda ikkitadan qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

**I BOB. MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALAR  
NUTQINING O'SISHIDA BOLALAR ADABIYOTINING O'RNI.**

**1.1. BOLALARНИ BADIY NUTQQА O'RGATISH BO'YICHA ISH  
MAZMUNI HAMDA VAZIFALARI.**

Maktabgacha tarbiya yoshidaga bolalar bilan ishlashda badiiy so'z katta o'rinni

tutadi. Bolalar xalq ertaklari, she'r, hikoyalar eshitishni yaxshi ko'radilar. Bolalar adabiyoti, avvalo o'zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarining go'zalliga, tilning ifodaliligi, she'riy so'zlarning musiqaviyligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi. Ayni vaqtida u bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Buyuk rus demokratik V.G. Belinskiy bolalar kitobi tarbiya uchun yozildi, «Tarbiya – buyuk ish, u insonning taqdirini hal qiladi» - degan edi.

Badiiy adabiyotning qimmati bolaning har bir jihatdan o'sishiga ta'sir ko'rsatishidadir. Badiiy adabiyot bolaga jonajon o'lka tabiatining kishilarning mehnati va hayotini, ularning qilayotgan ishlari va ko'rsatayotgan qahramonliklarini, bolalar hayotidan olingen voqyealar, bolalarning o'yinlari, ermaklari va qilayotgan mehnatlarini himoya qilib beradi. Kishilarning ichki dunyosini yoritib, ularning xarakterlari, his-tuyg'ulari, xatti-harakatlarini, shuningdek, tasvirlangan hodisalarga yozuvchining munosabatini ko'rsatib, badiiy adabiyot asarlari bolani hayajonlanishga, asar qahramonlariga achinishga yoki ularni qoralashga majbur qiladi. Eng yaxshi badiiy adabiyot asarlari bolalarda biror narsaga yaxshi-yomon, adolatli-adolatsiz, to'g'ri-noto'g'ri deb, o'zlariga xos bir yordam beradi. Bolalar kitobning qiziqarli mazmuni do'stlik, halollik, mehnatsevarlik, o'rtoqlik namunalarini ko'rsatadi. Bolalar badiiy adabiyot asarlari estetik jihatdan tarbiyalashga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Badiiy asarlarning yorqin obrazlari, jonajon tabiatning shoirona manzaralari, she'rlarning musiqaviyligi, tilning o'tkirligi, ifodaliligi bolalarga yoqadi. Bolalar badiiy so'z qudratini his etadilar, uncha katta bo'limgan ertaklar, xalq ashula hamda she'rlarini tez va osongina eslab qoladilar.

Badiiy so'zga muhabbatni ilk yoshdan boshlab tarbiyalab borish zarur, bola bog'chadan maktabga ana shu muhabbat bilan o'tadi va keyinchalik Vatan adabiyotini sevadigan bo'lib qoladi. Xalq, og'zaki ijodi – ertaklar, topishmoqlar, maqollar, qo'shiqlarning ko'plari uzoq o'tmishda va hozirigidan tubdan farq qiladigan voqyeligidan tubdan farq qiladigan turmush sharoitida yaratilgan xalq ijodi asarlaridan faqat tarbiya vazifalariga javob beradiganlari tanlab olinadi.

Aql-idroki yoki jasurligi bilan, sabr-toqati yoki mehnati bilan har qanday qiyinchiliklarni yengadigan dovyurak, vijdonli qahramonlar ishtirok etadigan

ertaklardan bolalar juda hayratlanadilar, bunday ertaklar bolalarni ijobjiy qahramonlarga nihoyatda hayrixoh bo'lishga, yovuzlikka, nohaqlikka, qizg'anchiqlikka, makr-xiylaga nisbatan murosasiz bo'lishga majbur etadi.

O'zbek xalq ertaklaridan tashqari ko'pgina rus xalq va mamlakatimizdagi boshqa xalqlar ertaklari ham bolalarga o'qib beriladigan ertaklar jumlasiga kiradi. Rus mumtoz adabiyoti namoyondalaridan A.S.Pushkin, N.A. Nekrasov, L.N. Tolstoy, K.D. Ushinskiy va boshqalarning asarlari bolalarga o'qib berish dasturiga kiritilgan. O'zbek yozuvchilari, shoirlari bolalar uchun juda ko'p ajoyib asarlar yaratganlar. Bu G'.G'ulom, N. Orifjonov, I. Muslim, P. Mo'min, Sh. Sa'dulla, Q. Hikmat, Q. Muhammadiy va boshqalarning asarlari – bolalarga o'qib beriladigan asarlarning eng boy manbasi hisoblanadi. Maktabgcha tarbiya yoshidagi bolalarga bag'ishlangan adabiyotlar ro'yxatidan rus yozuvchilari va shoirlari: V. Mayakovskiy, A. Kononov, S. Mixalkov, A. Gaydar, K. Chukovskiy va boshqalarning tarjima qilgan asarlari keng o'rinni olgan. Bu ro'yxatga chet el yozuvchilari Sh. Perro, X.K. Andersen va boshqalarning ertaklari ham kiradi. Bolalarga o'qib beriladigan asarlar doirasiga har xil janrdagi asarlar: hikoya va povestlar, proza hamda she'r shaklidagi ertaklar, dostonlar, xazil she'rlari, topishmoqlar, masallar kiradi.

Bolalar bog'chasi dasturida ko'rsatilgan asarlarning ko'pchiligi bolalar adabiyotining oltin fondini tashkil etadi. Har yili bolalar uchun yangi kitoblar nashr etib turiladi. Tarbiyachi bosmadan chiqayotgan kitoblarni kuzatib borishi, jurnallardagi tanqidiy maqolalarni o'qishi va bolalar kitoblarining muhokama etilishida ishtirok etishi kerak. Tarbiyachi har bir yosh guruhida bolalarni juda ko'p bolalar badiiy adabiyoti asarlari bilan tanishtirib borishi lozim. Bolalar bog'chasining muhim vazifasi bolalarning asarlar mazmunini o'zlashtirib olishlariga, ularni to'g'ri tushunishlariga erishishdir. Bolalar asarlarning bir qismini yod olishlari, bir qismini esa matnga yaqinroq qilib aytib bera olishlari lozim.

Tarbiyachi bolalarda adabiy asarni idrok qilish ko'nikmasini tarkib toptiradi. Bola asarni tinglayotib, uning mazmunini o'zlashtiribgina qolmay, balki muallif tasvirlayotgan his-tuyg'ular va kayfiyalarni his etishi ham lozim. Bolalar bog'chasida asarning mazmuni va formalarini analiz qilishning ba'zi elementlari ham tarkib

toptiriladi. Har bir bola maktabga o'tish paytida asarda hikoya qilangan asosiy qahramonlarni aniqlay olishi, ularga nisbatan o'z munosabatini (kimning nima uchun yoqqanini) ayta bilishi, asarning formasini aniqlay bilishi (she'r, hikoya, ertak) lozim.

Bolalarda birgalashib eshitish malakalarini, uyushqoqlik bilan savollarga javob berish va o'qib berilgan asar asosida savollar berish, illyustrasiyani diqqat bilan ko'zdan kechirish, kitobga yaxshi munosabatda bo'lism ko'nikmalarini tarbiyalash zarur. Bog'cha bolalarda kitobga berilish, bilishga qiziqish, tinglangan asar haqidaga taassurotlarni o'rtoqlashish istagi va ko'nikmasini tarbiyalashi lozim.

Bolalar kitobi bolaga tushunarli bo'lgan, uning aqli va qalbiga yetib borgan, ya'ni bola yozuvchining hikoya qilayotgan narsasini tushunadi hamda his eta olgan taqdirdagina u o'zining tarbiyaviy rolini bajaradi. Tarbiyachilar bolalarning asarlar haqidagi bilimlarini mustahkamlab borish uchun oldingi yosh guruhlarida ularning qaysi asarlar bilan tanishganlarini bilishlari kerak. Buning uchun yil boshida oldingi guruh dasturini ko'rib chiqish va takrorlash materialini belgilab olishi lozim.

Tarbiyachi taqvim-reja tuzish paytida yaqin bir-ikki hafta ichida bolalarga o'qib beradigan asarlarini tavsiya ro'yxatidan belgilab oladi. Bunda u bolalarda his-tuyg'u va xulq-atvorni, tevarak-atrofqa har xil qiziqish hamda munosabatlarni tarkib toptirishdek muhim tarbiyaning umumiy vazifalariga amal qiladi. Bolalarning qiziqqan narsalarini, ularning o'zaro munosabatlarini, o'yinlarini kuzatish yaxshi kitob tanlashga ancha yordam beradi. Har bir asarni tevarak-atrofdaga ma'lum hodisalar bilan bog'lash va o'sha vaqtdagina o'qib berish lozim, deb o'yash noto'g'ri. Albatta, kitobdagi hodisalarga bog'liq mavzuni o'qib berish kerak. Lekin boshqa vaqtida ham bunday kitob o'qishni o'tkazish lozim.

Tarbiyachi asar tanlagach, bolalarga uni qanday yetkazish lozimligini aniqlab olishi kerak. Notanish so'zlari ko'p bo'lgani uchun bolalar mazmunini tushuna olmaydigan asarni o'qimagan ma'qul. O'tmishda tarixiy davr bilan bog'liq bo'lgan mumtoz adabiyot namoyondalarining asarlarida, masalan, A.S. Pushkin ertaklarida, xalq ertaklarida uchraydigan juda ko'p notanish so'zlarni tushuntirish kerakmi? degan savol tug'iladi. Bu so'zlar bolalarning asar mazmunini tushunib olishlariga

xalaqit bermaydimi, shuning uchun ularni tushuntirmasa ham bo'ladi.

Badiiy adabiyotdan foydalanadigan mashg'ulotlar g'oyat osoyishta sharoit yaratilishini talab etadi. Muhimi, xech narsa bolalarni eshitishdan chalg'itmasligi lozim. Mashg'ulotlarni tez uyushtirish, uni bolalar adabiyotiga xos sog'lom, optimistik xarakterda, xushchaqchaqlik bilan o'tkazish kerak. Tarbiyachi bolalarni xushmuomalalik va osiyishtalik bilan o'tirishga taklif etib, bolalarning qanday o'tirganini tekshirib, mashg'ulotni boshlaydi. Mashg'ulot boshlangan vaqtdayoq bolalarning diqqatini jalb etish juda muhim. Bunga ogohlantirish, po'pisa qilish («Eshitinglar, keyin sizlardan so'rayman») bilan emas, balki qiziqarli muqaddima so'zi, muqaddima suhbati bilan erishish mumkin. Chunki ularda kitob mazmuniga qarab yorqin surat, topishmoq, bolalar tajribasidan va hokazolardan foydalansa bo'ladi. Bolalar bilan o'qib berishdan oldin va o'qib berishdan keyin olib boriladigan dastlabki ish badiiy asarning mazmuniga bog'liqdir. Ba'zan tarbiyachi muqaddima so'zida asarning nomi, muallifning ismi, mavzuni ma'lum qiladi. Masalan, «Bugun men sizlarga o'zbek xalq ertaklaridan «Aqli qiz qanday qilib qizg'anchiq boy ni aldagani»ni o'qib beraman. Mashg'ulotni muqaddima suhbati bilan boshlash mumkin. Masalan, S.Y.Marshakning «O'n ikki oy» ertagini o'qib berishdan oldin:

Tarbiyachi: Bolalar, bir yilda necha oy borlagini bilasizlarmi?

Bolalar yoki tarbiyachi: O'n ikki oy.

Tarbiyachi: U oylar qanday ataladi?

Bolalar oylar nomini aytishadi, tarbiyachi esa, zarurat bo'lsa, ularning javoblarini tuzatadi.

Tarbiyachi: Bir oy tugashi bilanoq ikkinchisi boshlanadi. Hali hyech qachon fevral yanvar tugamasdan kelmagan yoki may oyi aprelni quvib o'tmagan. Oylar birin-ketin kelaveradi va hyech qachon bir-biri bilan uchrashmaydi. Ammo odamlar tog'lik o'lka – Begimiyada bir qiz bir vaqtning o'zida o'n ikki oyning hammasini ko'rghanligi haqida hikoya qiladi. Bu qanday bo'lgan?

Manna bunday ....

Keyin tarbiyachi kitobdan o'qiy boshlaydi.

Ertak o'qib bo'lingach, qizcha bir vaqtning o'zida birdaniga o'n ikki oyni

qanday ko'rganligi, qiyin vaqtda oylar qizchaga qanday yordam bergenligi va boshqalar haqida suhbat o'tkazgan ma'qul. Ayniqsa, axloqiy-estetik va bilish mazmuniga ega bo'lgan kitoblarni o'qib berishda puxta tayyorgarlik talab qilinadi. Axloqiy-estetik mazmundagi kitoblar bolalarda axloqiy sifatlar, xulq-atvorning ijobiliy tomonlarini tarkib toptirishga yordam beradi. Sh. Sa'dullaning «Injiq qizcha», L.N. Tolstoyning «Danak», V. Oseyevaning «Sehrli so'z» degan asarlari va boshqalar shunday kitoblar jumlasiga kiradi.

Muhimi, bolalarning kitobni eshitish jarayonidayoq uning g'oyaviy mazmunini tushunib olishlaridir. Bunda muqaddima suhbat katta rol o'ynaydi, tarbiyachi bunday suhbatda bolalar diqqatini eng asosiy, muhim narsalarga jalb etadi, Masalan, mактабга тайярлов гурухидаги Sh.Sa'dullaning «Injiq qiz» she'rini o'qib berishdan oldin tarbiyachi bolalarga bunday savol beradi: «Болалар, яхшилаб о'яланг ва айтинг: qanday qiz haqida – яхши qiz va qanday qiz to'g'risida – yomon deyishadi?».

### Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi: Bolalar, sizlar kimning yaxshi qiz, kimning yomon qiz deyilishini to'g'ri aytinglar. Hozir men sizlarga Gulbodom degan qiz haqida yozilagan she'rni o'qib beraman. Sizlar yaxshilab eshiting va keyin menga Gulbodomni yaxshi qiz deyish mumkin-munkin emasligini aytasiz. Bu she'r «Injiq qiz» deb ataladi. She'rni shoir Shukur Sa'dulla yozgan.

Shundan so'ng tarbiyachi she'rni o'qiy boshlaydi.

Axloqiy-estetik mazmundagi kitobni o'qishdan oldin o'tkaziladigan muqaddima suhbat qisqa bo'lishi – 3-5 daqiqadan oshmasligi va albatta bolalar tajribasi bilan bog'lanishi kerak («Kimni biz yaxshi qiz deymiz?» -bu savol bolalar tajribasiga va kitob mazmuniga qaratilgan).

Axloqiy-epik mazmundagi kitoblar o'qib bo'lingandan keyin ham suhbat o'tkazishni talab etadi. Bunday suhbatlarda juda ko'p savol va tushuntirishlar bo'lmasligi lozim, chunki bolalar kitobni o'qish paytidayoq qahramonlar xatti-harakatlarining mohiyatini chuqur anglab oladilar. O'qilgan asar haqida o'tkaziladigan suhbatlarda bolalarni qahramonlarning xatti-harakatlarini to'g'ri

baholashga o'rgatish va bolalarning qahramon va uning xatti-harakatlariga o'z munosabatlarini aytishlariga erishish lozim».

Sh. Sa'dullaning she'rini o'qigandan so'ng o'tkaziladigan suhbatda bolalarga injiq qizning xulq-atvorini baholashga ko'maklashadigan savollar berish kerak.

Tarbiyachi: Gulbodomni yaxshi qiz deb bo'ladi?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi: Nima uchun?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi: Siz bunday qiz bilan do'st bo'lishni istarmidingiz? Nega?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi: Gulbodomni uchratsangiz unga nima degan bo'lar edingiz?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi: Gulbodomga onangizga qanday g'amxo'rlik qilishingiz va yordam berishingiz haqida nimalarni aytib berar edingiz?

Bolalarning javoblari.

Bilim beruvchi xarakterdagi kitoblar, masalan, mehnat haqidagi kitoblar mukaddima suhbat va o'qigandan keyinga suhbatni boshqacha mazmunda bo'lishini talab etadi. Mehnat haqidagi kitob bolalar uchun kishilarning kasblari, mashinalar va mehnat qurollari haqidagi bilimlar manbai bo'lib xizmat etadi.

Bilim beruvchi kitoblar har xil bilimlar manbai bo'libgina qolmay, balki kishilarning mehnatiga hurmat, tabiatga nisbatan muhabbat va hokazo fazilatlar tarbiyalash vositasi bo'lib ham xizmat qiladi. Shuning uchun kitob bilan ishlashni shunday yo'lga qo'yish g'oyat muhimki, u bolalarda yuksak axloqiy sifatlar tarbiyalash imkonini bersin (masalan, katta guruhda Q. Muhammadiyning «Etik» she'rini o'qishda).

Monolog nutq dialog nutqqa nisbatan ancha murakkab bo'lub, bu bitta odam tomonidan amalga oshiriladigan nutqdir. Monolog nutq(hikoya qilishda)da bitta kishi gapiradi, qolganlar esa tinglauqilar. Monolog nutq ko'pchilikka qarata aytiladigan nutq bo'lgani uchun, u har doim mantiqiy jihatdan izchil, grammatik jihatdan shakllangan, hammaga tushunarli va ravon bo'lishi kerak.

Monolog nutq (hikoya qilish) yaxshi xotirani, nutqning shakl va mazmuniga diqqatni yo'naltirishni talab etadi. Shuning bilan bir vaqtida, monologik nutq tafakkurga tayanadi.

Monologik nutq lingvistik (tilshunoslik) tomondan ham murakkab hisobianadi. Monolog nutq tinglovchilarga tushunarli bo'lishi ushun yoyiq gaplardan, aniq lug'atdan foydalanish kerak. Hikoya qila olish qobiliyati kishilarning muloqotda bo'lish jarayonida katta rol o'ynaydi. Bola uchun esa bu qobiliyat bilish vositasi, o'z bilimlarini, tasavvurlarini tekshirish vositasi hisoblanadi. Bolalarda monologik nutqning shakllanishi ularda mantiqiy tafakkurning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Vundan tashqari, bola nutqi mohologik nutqqa aulanishi uchun u tilning lug'atini va grammatik tomonini yerkin egallagan bo'lishi kerak.

Ruhshunoslarning aytishicha, bolalarda monologik nutq besh yoshdan boshlab paydo bo'ladi.

Ruhshunos D. V. Elkanin bu haqda shunday yozadi: "Bola hauot tarzining o'zgarishi, kattalar bilan uangi munosabatlarning va uangi turdag'i faoliuatlarning shakllanishi nutq shaklini va uning vazifasini (xizmatini) farqlashga olib keladi. Muomalaning yangi vazifalari vujudga keladi, bola o'z taassurotlarini, kechinmalarini, rejalarini (niyatini) kattalarga yetkazishga harakat qiladi. Nutqning yangi shakli - monolog tarzida xabar qilish, ko'rgan va eshitganlari to'g'risida hikoya qilish paydo bo'ladi", bolalarni hikoya qilishga o'rgatish jarayonida barkamol tarbiya berishning xilma-xil masalalarini hal qiladi, aqliy rivojlanishga uordam byeradi. Hikoya qilib berishda mantiqiy tafakkur, diqqat rivojlanadi, nutq grammatik jihatdan shakllangan bo'lib, o'zini tutish, jamoa oldida so'zga chiqish malakasi hosil bo'ladi".

Shu munosabat bilan bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturida bolalarni hikoya qilishga o'rgatish bo'yicha har bir yosh guruhlariga ish vazifalari va mazmuni belgilab berilgan. Vu guruh bolalarini tanish hikoya va yertaklarni (tarbiyachining savollari va kitobdagi rasmlar yordamida, keyinchalik mustaqil) so'zlab berishga o'rgatiladi, o'yinchoq, buyum va rasm mazmuni bo'yicha hikoyani

(3-4 gapdan iborat) takrorlash ko'nikmasi tarbiyalanadi, tanish enaklardan olingan parchalarni sahnalashtirishda qatnashishga o'rgatiladi.

O'rta guruhlarda hikoya qilishga o'rgatish vazifalari va ularning mazmuni ancha murakkablashadi. Ushbu guruh bolalari birinchi yarim yillikda tanish hikoya va yertaklarni mustaqil holda qayta hikoya qilishga, asar qahramonlarining suhbatini ifodali so'zlab berishga o'rgatiladi<sup>4</sup>.

Mashg'ulotlarda birinchi marta o'qib berilgan kichik ertak va hikoualarning mazmunini qayta hikoya qilishga, o'rtoqlari hikoya qilayotganda e'tibor bilan tinglashga, o'yinchoqlar, turli buyumlar va yil fasllarini tavsiflovchi (avval tarbiyachining savollari, so'ngra namuna va reja asosida) hikoya tuzishga o'rgatiladi.

Ikkinchi yarim yillikda bolalarga tanish ertak va hikoualarni tinglashni, ularda ishtirok etuvchi rersonajlarning gaplarini, o'ziga xos xususiyatlarini tushunishni, asar mazmunini hikoya qilayotgan o'rtoqlarining nutqini diqqat bilan eshitishni, asar matnini buzib hikoya qilgan joylarini payqashni o'rgatish davom ettiriladi.

Maktabga tayyorlov guruhlari va boshlang'ich sinflar uchun "Nutq o'stirish" bo'limida o'quvchilarni badiiy adabiyotni hikoya qilib berishga o'rgatish yuzasidan olib boriladigan ishlar, ularning mazmuni quidagisha belgilangan:

Birinchi yarim yillik. badiiy asarlarni qayta hikoya qilish malakasini o'stirish. Adabiy asarlarni mazmunli, mantiqiy izchillikda, aniq va tasviriy, ifodali hikoya qilishga o'rgatish.

Tarbiyachi qayta hikoya qilishni o'rgatayotganda bolalar diqqatini, ayniqsa, ertakning boshlanmasi, takrorlanib kelayotgan parchalarga, xulosa qismiga: hikoyalardagi qahramonlarning o'zaro nutqi kabilarga qaratishi lozim.

Bolalar asar uoqyealarini so'zlayotganda ovoz ohangining xilma-xil turini (so'roq, his-hauajon, hauratlanish, iltimos) qo'llay bilishlariga erishish.

---

<sup>4</sup> Qodirova F., Qodirova M. Bolalar nutqini o'stirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent – 2006 yil.

Bolalarga o'yinchoqlar va buyumlar haqida hikoya tuzishni o'rgatayotganda o'yinchoqlarni ta'riflab berishga, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatuvchi belgilarni (rangi, shakli, qandau o'unalishi va boshqalar) aniq so'zlar orqali ifodalashga o'rgatish.

Ijodiy hikoya qilish. O'quvchilarni o'qituvchi tomonidan belgilangan hikoya yoki ertakni nihoyasiga yetkazishga, qisqa, lo'nda jumlalar tuzishga, tasviriy vositalardan foydalanishga o'rgatish.

Bolalarning shaxsiu tajribalari va o'qituvchi taklif etgan hayotiy mavzular asosida mantiqiu rivojlanib boruvchi hikoya yoki ertak tuzish qobiliyatlarini rivojlantirish: "Quvonshli kun", "Xafa bo'lgan kunim", "Mehmonda", "Vizning oila", "Yeng uaqin o'rtog'im", "Dam olish kuni", "Dadamga qarashdim", "Qo'g'irchoq teatriga bordim" va boshqalar.

Bolalarni tuzayotgan hikoya yoki ertaklarida ishtirok etuvchi qahramonlarning ruhiu kyeshinmalarini bilishga o'rgatish; "Birinchi qor", "Yaxmalakda", "Yangi yil bayrami", "Qorbobo", "Men sevgan fasl", "Tashqarida qor, uyimizda bahor", "Xola-xola o'unadik", "Kim oladi-uo, shuginani-uo" o'uini, "Men onamga yordamchi", "Ukamga mehribonman" va boshqalar<sup>5</sup>.

Bolalarga suratlar bo'uisha hikoya tuzishni o'rgatautganda, avvalo, ularning mustaqil fikrlashlariga, suratda tasvirlangan voqealarga o'z munosabatlarini bildirishlariga imkon yaratish kerak. Shu bilan birga, rasmda aks yettirilgan mavzuli voqeaga qarab ilgari nima bo'lgani va keyin nima bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritishga undash. Tabiat manzaralari aks ettirilgan suratga qarab, undagi go'zallikni, nafislikni ifodalay oladigan tasviriy so'zlar, o'xshatish va sifatlashlar ishtirokida gap tuzishga o'rgatib boorish ham amalga oshiriladi.

Badiiy adabiyotni tanishtirish orqali monologik nutqni o'stirishning yuqoridagi dastur vazifalari va mazmuniga ko'ra maktabgacha ta'limning savod o'rgatish davri guruhidagi bolalar hikoya qilib berishning quyidagi turlarini egallashlari lozim:

## 1. Tanish ertak va hikoualarni qayta hikoya qilib berish.

---

<sup>5</sup> Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. T., TDPU. 2008.

2. Mashg'ulotlarda birinchi marta o'qib berilgan hikoya va aytib berilgan qisqa yertaklarni qayta hikoya qilib berish.

3. Ko'rib turgan narsa-buyumlar: o'unshoqlar, o'simliklar, kiyimlar, idish-tovoqlar, myebyellar va hokazolar bo'yicha tasviriy hikoya tuzish.

4. Voqeaviy-sujetli rasmlar bo'yicha tasviriy hikoya tuzish.

5. Bolalar o'z tajribalari asosida xotiradan hikoya qilib berishlari.

Katta guruh dasturida hikoya qilishning quyidagi turlari bauon yetilgan:

1. Badiiy asarlarni qayta hikoya qilib berish.

2. Narsa-buyumlar, o'yinchoqlar, o'simliklar, kiyim-kechaklar, idish-tovoqlar, myebyellar va hokazolar haqida hikoualar, ularning o'ziga xos xususiuatlarini ko'rsatuvchi byelgilarni tuzish.

3. Rasmlar bo'yicha tasviriy va voqeaviy hikoya tuzish .

4. Xotiradan o'z shaxsiu tajribasida kuzatgan voqeа va hodisalarni, narsalarni, maktabda va uyda nimalar qilganini, guruhda va uyda bo'lib o'tgan yeng qiziqarli voqealar haqida hikoya qilib berish.

5. Ta'limiylar o'yinlar asosida tasviriy hikoya tuzish: "Qo'g'irchoq, o'yinchoqni top", "Qo'g'irchoq, menda qanaqa gul bor", "Qo'g'irchoq, top-chi, yonimda kim o'tiribdi?", "Qo'g'irchoq, qo'limdagi suratlar qaysi ertakdan olinganini top-chi?" va boshqalar.

6. Ijodiy hikoya qilishga, o'qituvchi tomonidan boshlangan ertak va hikoyani oxiriga yetkazish, tarbiuashi taklif etgan mavzu va reja asosida ertak yoki hikoya to'qish, berilgan 3–4 so'z yordamida ertak yoki hikoya to'qishga o'rgatish.

Maktabgacha tayyorlov dasturida ham hikoya qilib byerishning xuddi katta guruhdagi kabi turlari ko'rsatilgan.

## **1.2. MAK TABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALAR NI BADIY ADABIYOTNI HIKOYA QILIB BERISHGA O'RGATISHDA FOYDALANILADIGAN USULLAR.**

Bolalarni hikoya qilishga o'rgatishda maxsus usullardan foydalilanladi. Ulardan asosiylarini aytib o'tamiz:

1. Hikoya namunasini berish usuli. Bunda qandaydir buyumni (predmetni) yoki voqeani jonli va qisqa tasvirlanadi. Vu usul birmuncha yengil usul bo'lib, tarbiyachi bolalarga narsa-buum, rasm, voqea haqida tayyor hikoya aytib beradi, bolalar hikoyani tinglab, o'z hikoyalari uchun mazmun tanlaydilar, uning hajmini, izchilligini belgilab oladilar. Shuning uchun bu usul o'quvchilarni hikoya qilib berishga o'rgatishga yordam byeruvshi ta'limiy usul bo'lib hisoblanadi.

Namuna bolalarning taqlid qilishiga mos bo'lishi, ya'ni hajmi kichik, fikrlar izchil bayon qilinishi, jumlalar qisqa va grammatik jihatdan to'g'ri tuzilishi lozim. Masalan, o'qituvchi o'yinchoqni tasvirlashga o'rgatishda o'zi bitta o'yinchoqni olib, u haqda shunday tasviriy hikoya tuzadi:

-Mana bu ayiqcha, u jiggarrang, yumshoq baxmaldan yasalgan. Uning bosh qismida ikkita kichkina quloqlari, ikkita qop-qora, dum-dumaloq ko'zlar, tumshug'i bor. Tumshug'ida esa burni bor. Tanasida 4 ta oyog'i bor. Ayiqcha o'yinchog'i bizga o'ynash uchun kerak.

Bolalar namuna hikoyadan yaxshi foudalanishlari ushun uning matni qisqa gaplardan iborat bo'lishi va izchil bayon qilinishi kerak.

Hikoya namunasi boshqa usullarga nisbatan hikoya qilishga o'rgatish jarayonini uyengillashtiradi, bolalar erishishi kerak bo'lgan natija ko'rsatib beriladi. bundan tashqari, namuna o'quvchilarning hikoya qilishlari lozim bo'lgan mavzularning hajmini, ketma-ketligini belgilaydi.

Tarbiyachining namuna hikoyasidan bolalarmi hikoya qilib berishga o'rgatishning dastlabki bosqichlaridan, shuningdek, yangi vazifa qo'yilganda yoki hikoya qilib bera olmaydigan bolalarga yordam berishda foydalaniladi. Tarbiyachining namuna hikoyasini yomon hikoya qiladigan 1 – 2 bola takrorlashi mumkin.

Namuna hikoya usulidan mashg'ulotning borishida foydalanish kerak. Undan mashg'ulot oxirida foydalanish esa hech qanday ijobiy natija bermaydi, chunki o'quvchilar namuna hikoyaga taqlid qila olmaydilar, o'z nutqlarida undan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar.

2. Hikoya rejasini berish usuli. Hikoya rejasi 2 – 3 asosiy savoldan iborat bo’lib, fikrning ketma-ketligini va mazmunini belgilaydi. Namhna usulidan foydalanim hikoya qilib berish bilan bog’liq 2–3 mashg’ulotdan keyin hikoyani reja asosida so’zlab berishga o’rgatish mustaqil yetakchi usullardan biri bo’lib qoladi. Bolalar hikoyasi xilma-xil bo’lishi uchun o’qituvchi oldindan asosiy va qo’shimcha reja tayyorlab qo’yishi kerak. Bu masg’ulot jarayonida savollarni almashtirish bolalar diqqatini faollashtiradi.

Masalan, matabga tayyorlov guruhi bolalarga o’z guruh xonalarini tasvirlash uchun taxminan quyidagi rejani taklif etish mumkin:

1. Xonani kim toza saqlaydi.
2. Sen xonani yig’ishtirishda (tozalashda) qanday yordam berasan?

6 yoshli bolalar guruhi bilan dastlabki mashg’ulotlarda agar bola rejadan chetlashsa, uning nutqini bo’lmasdan oxirigacha tinglab turish lozim. Ammo asta sekin hikoyaning to’liq yoki izchil emasligini aytib boshqa bolalarni javobni to’ldirishga jalb qilishi kerak.

7 yoshli bolalarning hikoyasiga dastur talablarini (ularning maqsadga qaratilganligi va izchilligiga) qo’yadi. Shuning uchun o’quvchilarni hikoya rejasiga amal qilishga o’rgatush kerak. Ayniqsa, bu rasm asosida hikoya qilish va o’z tajribalaridan hikoya tuzishga taalluqlidir.

Tarbiyachi hikoya qiluvchining mavzudan yoki rejadan chetga chiqib ketganini o’zi ko’rsatibgina qolmay, balki bolalarni o’rtog’ining hikoyasini nazorat qilib borishga jalb qilishi kerak.

(Hozir nima haqida hikoya qilib berish kerak? Hammaga tushunarli bo’lishi uchun avval nimani hikoya qilib byerish yaxshiroq?)

Hikoya namunasini berish hikoya qilishga o’rgatishning eng yengil usuli, hikoya ryejasini berish usuli esa ancha qiyin. Vu usul murakkab bo’lishiga qaramay, bolalarni hikoya qilishga o’rgatishda keng tarqalgan muhim usul hisoblanadi.

3. Rejani jamoa bo’lib muhokama qilish usuli. Reja asosida hikoya tuzish va uning mazmunini boyitishni uyengillashtirish maqsadida, rejani jamoa bo’lib

muhokama qilish tavsiya etiladi. Bu usuldan maktabga tayyorlov guruhlarida va 1-2-sinflarda ryeja asosida hikoya qilishga o'rgatishning dastlabki bosqichida foydalaniladi. Masalan, o'qituvshi o'quvchilarga shunday uo'llanma beradi: "Biz qanday qilib jo'ja boqqanimizni gapirib byering. Jo'jalar qauyerdan paydo bo'ladi? Ulami qanday parvarish qildingiz? Jo'jalar katta bo'lganda, ular qanday bo'lishdi?"

Vu usulning mohiyati nimadan iborat?

Hikoyani tuzishga qadar tarbiyachi bolalar bilan birlgilikda rejadagi ayrim savollarni muhokama qiladi, ya'ni hikoya mazmunining xilma-xil bo'lishi imkoniuatlarini ko'rsatadi. Rejadagi bir savolga (masalan, "Bola qanday kushuksha topib oldi?") bir necha o'quvchi joyida o'tirgan holda javob byerishini taklif etadi. Bolaning joyida o'tirgan holda javob berishi - bu hali hikoya emas, balki bir yoki bir necha gapdir. Hikoya ryejasini jamoa bo'lib muhokama qilish usuli esa bolalarning tashabbuskorligini jonlantiradi, faollashtiradi, bolalarni murakkab jarayon hisoblangan mustaqil hikoya tuzishga o'rgatadi.

#### 4. Jamoa bo'lib hikoya tuzish usuli.

Bu usul o'ziga xos bo'lib, undan o'quvchilarni ijodiy hikoya tuzishga o'rgatishda foydalaniladi. Oldindan belgilab qo'yilgan hikoya rejasini ketma-ket muhokama qilish jarayonida o'qituvshi va o'quvchilar ayrim javoblarni tinglaudilar, ulardan qaysi biri yaxshiroq ekanligini muhokama qiladilar. Tarbiyachi ularni o'ulab topilgan hikoyaning boshlanishi sifatida takrorlaudi. So'ngra navbatdagi eng yaxshi savol tanlanadi, o'qituvchi esa aytilgan eng yaxshi jumlalarning va o'zining gapini birlashtirib, kichik hikoya tuzadi.

Oxirida hikoya tarbiyachi tomonidan takrorlanadi, so'ngra 2-3 o'quvchi takrorlaudi. Vu usulning mohiyati shundaki, dars mashg'ulotida barsha bolalar faollik ko'rsatishadi, ularning xauollari asta-sekinlik bilan shakllanadi. Biroq bu usulning bir qator kamchiliklari mayjud: o'quvchilarning nutq faoliyati jumlalarni tuzish, so'zlarni tanlash bilangina chegaralanadi, ular monologik nutqni rivojlantirish ustida kam mashq qiladilar. Shuning uchun bu usuldan foydalanish chegaralangan.

#### 5. Hikoyani qismlar bo'yicha tuzdirish usuli.

Ayrim dars mashg'ulotlarida hikoyani qismlar bo'yicha tuzdirish usulidan foydalanish mumkin, bu usul hikoya tuzishni yengillashtiradi, chunki topshiriq hajmi kamayadi. Shuningdyek, mashg'ulot ancha qiziqarli va xilma-xil bo'lib, hikoyalar to'liq va suqr mazmunga ega bo'ladi, ko'p bolalardan so'rash imkoniyati vujudga keladi.

Mazmuni alohida qismlarga yengil ajraladigan gasmlarni qism bo'yicha tasvirlash mumkin. Masalan, o'quvchilar Ushbu gasmlarni qism bo'yicha tasvirlashlari mumkin: "Tovuqlar", "Mushuk bolalari bilan", "Echki bolalari bilan", "Sigir buzog'i bilan", "Qishki o'uinlar" va hokazolag.

Tarbiyachi tasviriu hikoya ushun mavzu taklif etishdan avval rasmni kichik-  
kichik qismlarga ajratib chiqadi. Masalan, "Quyonlar" dyegan mavzuda tasviriy  
hikoya tuzishda o'qituvchi bolalarni shundau ogohlantiradi: "Quyon haqida hikoya  
qilamiz, ammo hammasini bir yo'la emas, balki quyonlar haqida hamma narsani  
xotirlash (esga tushirish) ushun tartib bilan gapiramiz". So'ngra har bir qism uchun  
reja taklif etish mumkin. Masalan: "Hozir, o'quvchilar quyonni tanasi nima bilan  
qoplanganligini, uning tumshug'i qanday yekanligini, u qandau harakat qilishini  
(uurishini) eslaymiz".

Vu ryeja asosida 2–3 bola hikoya qilib bergach, navbatdagi qismga o'tiladi:  
"Vizning quyonlarimiz qayerda yashashini, katagida nimalar borligini, ular nima  
uchun kyerakligini garirib byering". So'ngra quuronning oziqlari, kim ularga  
g'amxo'rlik qilishi va hokazolar haqida hikoya qilib berish mumkin. Dars  
mashg'uloti oxirida nutqi yaxshi, hikoya qilish malakasi riuojlangan bir o'quvchi  
rasmida tasvirlangan narsalar haqida bat afsil gapirib berishi mumkin.

## 6. Savollar berish usuli.

Vu usul hikoya qilishga o'rgatishda ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Savol1ar, asosan, hikoya aytib byerilgandan kyeuin aniqlik kiritish va  
to'ldirish maqsadida beriladi.

## 7. Aytib turish usuli.

Nikoya qilish jarauonida o'quvchi qandaydir xatoga uo'l qo'yishi yoki ayrim  
joyini esdan chiqarganda so'z yoki gapni aytib turishdan foydalanish o'rini.

O'quvchining xatosini to'g'rilash yoki hikoyaning esdan chiqargan joyini aytib turish yetarlicha baland ovozda, samimiy bo'lishi kerak. O'quvchi o'qituvchining tuzatishini takrorlashi shart emas, aks holda u o'z hikoyasining davomini yo'qotib qo'yadi. Bolalar hikoya qilib berayotganlarida ular nutqidagi xatolarni e'tiborsiz qoldirish kerak emas - xatoni hikoya qilish jarayonida to'g'rilash mumkin, agar ko'pchilik o'quvchilarda xato ushraudigan bo'lsa, o'qituvchi ular bilan lug'at ustida ishslash yoki grammatik to'g'ri nutqni, nutqning tovush madaniyatini shakllantirish uchun tashkil etiladigan mashg'ulotlarda shug'ullanadi.

### 8. Baholash usuli.

Bu usuldan foydalanishning asosiy maqsadi shundaki, baho faqat hikoyasi baholanayotgan o'quvchigagina ta'sir etib qolmasdan, balki hikoya tnzishi lozim bo'lgan boshqa bolalarga ham ta'sir qilsin. Shuning uchun bu usuldan dars mashg'uloti davomida foydalaniladi. Mashg'ulot oxirida berilgan baho, o'z mohiyati bilan foydasizdir, bundan tashqari, barcha tinglangan hikoyalarning sifati qanday bo'lganligini bola esda saqlashda qiynaladi, mashg'ulotning oxirida ular toqatsizlanadilar va buning natijasida o'qituvchining ko'rsatmalarini idrok eta olmaydilar. Nar bir hikoyani batafsil baholash shart emas, biroq ayrim hikoyalardagi biror ahamiyatli tomonni, izchillikni, yangilikni yoki kamchiliklarni (lug'ati, ovoz kuchi, qomatini noto'g'ri tutish va hokazo) aytib o'tish kerak.

Tarbiyachi hikoya qilib byergan bolaning hikoyasini shunday baholaydi: "Yasha, Salim. Sen birinchi bo'lib hikoya qilib byersangda, o'rdakchalar qanday harakat qilishlarini aytishni esingdan chiqarmading. Sening hikoyangni qiziqib tingladik".

Ba'zan o'rtoqlarining hikoyasini muhokama qilishga o'quvchilarning o'zini ham jalg qilish mumkin. Vu usul katta guruhlarda qo'llaniladi. Chunki o'quvchilar hikoyaning sifatini (to'liqligini, qiziqarliligin, ifodaliligin va boshqalarni) aytadilar.

Shundau qilib, o'quvchichi o'quvchilarni hikoya qilib berishga o'rgatishda foydalaniladigan hamma usullarni juda yaxshi bilishi va bu usullardan sharoitga qarab, mashg'ulot ushun yetakchi usulni tanlashi kyerak.

## Adabiy asarlarni qayta hikoya qilish

Qayta hikoya qilish - hikoya qilishning birinchi turi hisoblanadi. Qayta hikoya qilish tinglangan badiiy asarlarni ma 'noli og'zaki nutqda takroriy aytishdir. Qayta hikoya qilish o'quvchilar badiiy nutqining rivojlanishiga, emotsional va obrazli so'zlarni tanlashga o'rgatadi, jonli so'zni egallashga yordam beradi, asarni tinglay bilish, uning mazmunini tushunish ko'nikmasini o'stiradi, ularni bayon qilishdagi izchillikni, muallifning ifoda usulini eslab qolishga, asarni tushunib, jamoa oldida og'zaki aytib byera olish malakasini shakllantiradi.

Qayta hikoya qilishga o'rgatish samarali bo'lisi uchun, eng avvalo, qayta hikoya qilish ushun matnlarni to'g'ri tanlash lozim.

Nar bir asar o'quvchilarda jamiyatimiz uchun zarur bo'lgan sifatlarni tarbiyalashi va rivojlantirishi kerak. Qayta hikoya qilish uchun asar tanlanganda quyidagi talablarga amal qilish kerak: yuqori badiiy qimmatga, g'oyaviy–mantiqiy yo'nalishga ega bo'lisi, jo'shqinligi, fikrning yangiligi va bayonning obrazliligi, voqyealarning ketma-kyetligi, mazmunining qiziqlarliligi, shu bilan bir qatorda, badiiy asarning hajmi va uning o'quvchi yoshiga mos kelishini ham hisobga olish muhim ahamiuatga ega,

Ushbu talablarga xalq ertaklari, hajmi uncha katta bo'limgan hikoyalar misol bo'la olishi mumkin. Shuningdyek, dasturda o'quvchilarning qayta hikoyalariga bir qansha talablar qo'yilgan:

- 1) ma'nosiga tushungan bolda, ya'ni matnni to'liq tushunib hikoya qilish;
- 2) asarni to'liq bauon etish, ya'ni asardagi muhim joylarini tashlab ketmasdan bayon etish;
- 3) izchillik (ketma-ketlik) bilan hikoya qilish;
- 4) muallif matnidagi lug'atlardan va iboralardan foydalanish, ayrim so'zlarni ularning sinonimlari bilan almashtirish;
- 5) to'g'ri ohangdan foydalanish, uzoq rauzalarning bo'lmasligi;
- 6) og'zaki nutq madaniyatiga e'tibor berish: qayta hikoya qilayotganda gavdani to'g'ri tutish, tinch turish, tinglovchilarga murojaat qilish, nutqning

intonatsion ma'nodorligidan (ifodaliligidan) foydalanish, uyetarlisha baland ovozda tovushlarni aniq talaffuz etish,

Ushbu talablarning barshasi bir-biri bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lib, bulardan birortasini ham e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas.

Savod o'rgatish davrida qayta hikoya qilishga o'rgatish usullari bir qancha bo'lib, bu ishlar bolalar nutqini qayta hikoya qilish orqali amalga oshiriladi.

Ma'lumki, qayta hikoya qilish monologik nutqni shakllantirishda eng birinchi bosqich hisoblanadi. Shuning uchun har bir o'quvchi qayta hikoya qilishni yaxshi egallab olishi shart. Buning uchun har xil usullardan foydalaniladi. Vular quyidagilar:

1. Tarbiyachining bola bilan birga qayta hikoya qilishi.

Tarbiyachi bu usuldan qayta hikoya qilishga o'rgatishning dastlabki bosqichida, ayniqsa, hikoya qilib byera olmaydigan o'quvchilar bilan ishslashda keng foydalanishi kerak.

Qayta hikoya qilish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga sezdirmagan holda gavdasini to'g'rplashi, imo-ishora, ko'z qarashi bilan dalda berishi mnmkin, dars mashg'ulotining oxirida esa, albatta, o'quvchini maqtash kerak: "Yasha, endi boshqa o'rtoqlaringga hikoya qilish yengil bo'ladi. Faqat keyingi safar balandroq ovozda hikoya qilgin".

2. Qayta hikoyani takrorlash.

Vu usuldan ko'proq savod o'rgatish davrida hamda shu bilan birga murakkab hikoyalarga nisbatan maktabgacha ta'limning keyingi bosqichlarida ham foydalaniladi. Vu o'quvchi uchun ansha murakkab bo'lgan ishdir, chunki u o'qituvchining hikoyasiga alohida luqma tashlash (gap qistirish) bilan birga, to'liq jumlalarni ham takrorlashiga to'g'ri keladi.

3. So'z va jumlalarni aytib turish.

Bu usul qayta hikoya qilishning ravonligini, izchilligini ta'minlaydi, uzoq pauza qilishga uo'l qo'ymaydi. Bu usuldan ko'proq o'quvchi asar matnining ayrim joularini yesdan shiqarganda foudalaniladi.

Agar bola juda yaxshi hikoya qilsa-yu, biroq nutq sur'ati juda syekin bo'lsa, o'qituvchi pauza vaqtida sabr-toqat bilan hikoyaning davomini kuzatishi: o'qituvchining gavda holatiga e'tibor bilan qarashi, dalda byerishi orqali o'quvchi diqqatini to'plashi kyerak.

Agar bola hikoya qilayotgan vaqtda tyebranib (chayqalib) tursa, boshini egsa, qo'li bilan ortiqsha harakatlarni qilsa, uning hikouasini bo'lib tanbyeh byerish yaramaydi, balki budau hollarda imo-ishora, ko'z qarashi bilan uning xatosini, kamchiligini tuzatishi, hikoya qilib byergandan kyeuin esa hammaga yeshitarli qilib: "Hikoya qilayotganingda tinch turishing, boshingni pastga egmasdan, o'rtoqlaringga qarab turishing kerak, axir ular syening hikoyangni tinglashadi-ku", deb aytishi kerak. O'qituvchi o'quvchining bu nuqsonlarini kundalikka belgilab qo'ysa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki keyingi qayta hikoya qilib byerish mashg'ulotidan oldin uana bir marta o'quvchini ogohlahtirishda bundan foudalanadi.

Tarbiyachi aytib turish orqali, bolani qayta hikoya qilauotganida uo'l qo'ygan grammatik xatolarni to'g'irlaydi. Vu usul qayta hikoya qilishga o'rgatishning keyingi bosqichlarida ham qo'llaniladi.

#### 4. Savollar berish.

Vu usul keng tarqalgan bo'lib, u muqaddima (kirish) suhbatida va mashg'ulot jarayonida qo'llaniladi. Qayta hikoya qilish mashg'ulotida foydalilaniladigan savollarni shartli ravishda ishlatalishiga va maqsadiga qarab bir qancha turkumga ajratish mumkin. Hikoya qilolmaydigan o'quvchilarga qayta hikoya qilishni boshlagunga qadar yordamchi savollar berish mumkin, bu hikoyani boshlashga yordam beradi, masalan: "Sen nima haqida hikoya qilasan, ola quyon to'g'risidami? Mayli, kel boshlaymiz. Kunlardan bir kuni jikkakkina ola quyon sheriklariga ... ". Yoki: "Turna Tulkini o'zi bilan olib, osmonga ko'tarilibdi va unga nima debdi? Uyerni ko'ryapsanmi? Mana shu Turnaning autgan gaplarini, Tulkining esa javobini aytib byering ... Na, mushtumday ... Vu yog'ini o'zing davom et".

Bola qayta hikoya qilib bergandan kyeuin, albatta, savol berishdan foydalanish mumkin. Bu asar mazmunini o'quvchi qay darajada tnshunganini aniqlashga yordam beradi, matnni qayta hikoya qilayotgan vaqtda tashlab ketilgan joularini tiklashga yordam beradi.

Ayrim hollarda qayta hikoya qilishdan kyeuin qahramonlarning fe'l-atvori yoki ularning ifodali nutqi haqida savol berish mumkin.

Qayta hikoya qilish o'rtasida unsha katta bo'limgan mashqlar o'tkazish yoki ko'rsatma byerishdan foydalanish mumkin. Shuningdyek, asar matnining ayrim joularini uana bir marta takrorlash usulini qo'llash mumkin .

#### 5. Rag'batlantirish.

Qayta hikoya qilish jarauonida o'qituvchichi o'quvchini jilmayish, boshini qimirlatish (tasdiqlash), qisqa so'z aytish ("Yasha", "barakalla") bilan rag'batlantiradi.

Qayta hikoya qilib byergandan so'ng o'quvchini maqtaydi. Bunda qayta hikoya qilishning biror ijobiy sifatini ta'kidlab o'tadi.

#### 6. Qismlar bo'yicha qayta hikoya qilish.

Vu usul bolalar idrokinining qimmatini yo'qotmaydi, chunki qayta hikoya qilish ushun bolalarga mazmuni tanish bo'lgan asar tanlanadi. Qismlar bo'yicha qayta hikoya qilish usulidan foudalanib, mashg'ulotni tashkil etish jarauoni bolalardan kun davomida so'rash imkonini yaratib beradi.

#### 7. Rollarga bo'lib qayta hikoya qilish.

Vu usul nutqning ma'nodorligini (ifodalilagini) shakllantirishga yordam beradi. O'qituvchi tomonidan ishtirok etuvchi shaxslar xaraktyerining izohlanishi o'quvchilar nutqining oydinlashishiga, diqqatining faollashishiga katta ta'sir etadi. Rollarga bo'lib qayta hikoya qilish maktabgacha ta'limda o'rtaliga guruhdan boshlab qo'llaniladi. Bu usuldan mashg'ulotning oxirida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

#### 8. O'yin usuli (dramalashtirilgan o'yin).

Bu usulda rersonajlarning (ishtirok yetuvshilarning) luqma tashlashlari harakatlar bilan boshqariladi: o'quvchilar imo-ishoradan, hayvonlarning ovozlariga taqlid qilishdan va boshqalardan keng foudalanadilar, biroq o'yin uchun hech

qandau niqoblar, dekoratsiyalar talab etilmaydi. O'qituvchi avval o'zi muallif nomidan gapiradi, so'ngra bola gapiradi. Dastlab rolni ijro etish uchun nutqi bo'sh rivojlangan bolalar chiqariladi. Dramalashtirilgan o'yin 5 daqiqa davom etadi. Turli yosh guruqlarida qayta hikoya qilib berishga o'rgatish mashg'ulotining tuzilishi (o'tkazish uslubiyoti) har xil bo'ladi.

Qayta hikoya qilish uchun tanlangan matn o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi kerak.

Adabiy asarlarni qayta hikoya qilish mashg'ulotida o'qituvchi o'z oldiga bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirish, matn mazmunini bir-biriga bog'lab, ketma-ketlik bilan, nutqning ifodali vositalaridan foydalanib, aniq, grammatik jihatdan to'g'ri bayon etishga o'rgatish vazifasini qo'yadi. Qayta hikoya qilib berishga o'rgatish mashg'ulotini o'tkazish uslubiyoti (metodi) ushbu guruh bolalari bog'lanishli nutqining rivojlanganlik darajasiga, o'qituvchining o'z oldiga qo'ygan vazifasiga, shuningdyek, qayta hikoya qilib berish uchun tavsiya etilgan adabiy asar matniga bog'liq bo'ladi. Qayta hikoya qilib berish mashg'uloti ushbu qismlardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Kirish suhbati. Vu shubat asar mazmunini idrok qilishga, o'quvchilarning tasavvurlarini aniqlashga, kerakli emotsional holatni vujudga keltirishga va hokazolarga qaratilgandir.

2. Badiiy asarni o'qib berish. Asarni dastlabki o'qib berishda o'quvchilarga uning mazmunini esda saqlab qolish kerakligini, so'ng uni qayta hikoya qilib berish lozimliginii ta'kidlamaslik kerak, aks holda, badiiy asarning g'oyaviy tomonini idrok eta olmasligi mumkin. Asar matnini ma'noli qilib, ishtirok yetuvshilarning dialogini intonatsiya bilan ajratib o'qib berish (yoki hikoya qilib berish) juda muhimdir. Shundau qilinganda o'quvchilarga asardagi qahramonlarga va voqealarga o'z munosabatlarini bildirishga yordam bergen bo'lamiz.

3. O'qib berilgan asarning mazmuni va shakli yuzasidan suhbat. O'qib berilgan yoki hikoya qilib berilgan asar mazmuni yuzasidan beriladigan savollar oldindan yaxshilab o'ylab qo'yilgan bo'lishi kerak.

Dars mashg'ulotining bu qismi unsha uzoq bo'lmasligi, bolalarga 4 - 5 savol berish bilan kifoyalanish lozim.

4. Adabiy asar matnini ikkinchi marta o'qib berish (yoki hikoya qilib berish). O'qib berishdan va o'qituvchi o'quvchilarga asarni diqqat bilan tinglashni, uning mazmunini esda olib qolishni, kyeuin qayta hikoya qilib byerishlarini ta'kidlaydi.

5. O'quvchilar tomonidan asarni qayta hikoya qilib berish. Misol tariqasida o'zbek xalq ertaklaridan "Uch tulki" yertagini qayta hikoya qilish mashg'ulotini keltiramiz.

Tarbiyachi yertakni o'qib byerishdan (yoki hikoya qilib byerishdan) avval o'quvchilarga quyon, qo'ng'iroq, eshak va uning bolasi xo'tikning, tulkingin (ona tulki, ota tulki, bola tulki) rasmlarini ko'rsatadi va o'quvchilardan ularning nomini so'raydi. O'qituvchi bolalardan tulki qanday hayvon yekanligini, eshak, uning bolasi xo'tik, quyon qandau hayvon yekanligini so'rav oladi. So'ogra o'qituvchi o'quvchilarga mana shu hayvonlar, "Uch tulki" ertagida uchrashini aytadi va bolalarga bu ertakni hikoya qilib beradi (yoki o'qib beradi). Shundan so'ng asar mazmuni uuzasidan savollar beradi: "Hozir myen sizlarga qaysi ertakni hikoya qilib berdim? Bu ertak qaysi hiylagar hayvon haqida uozilgan? Ertakdag'i tulkilar qandau? Rahmdilmi yoki hiylagarmi? Ular qandau qilib quyonni aldashdi? Ertak oxirida tulkingin bolasi Qashqani (quuonni) qandau qilib aldaganini kim eslab qoldi?

Tarbiyachi o'quvchilarga savollarga hammalari to'g'ri va aniq javob byerganlarini, asar mazmuniga yaxshi tushunib olganlarini aytib, "Hozir myen bu yertakni uana bir marta hikoya qilib byeraman, sizlar esa uni diqqat bilan tinglanglar, keyin uni myenga qayta hikoya qilib berasizlar", - deydi.

Asarni ikkinshi marta hikoya qilib bergach, 5 - 6 o'quvchini ertakni qayta hikoya qilib berishga chiqaradi. Nar bir o'quvchining qayta hikoya qilib berishlari baholanadi. Masalan: "Bekzod ertakni juda qiziqarli, ifodali qilib aytib berdi, ammo uning hikoyasi to'liq bo'lmasdi. U ona tulki quyonni qanday aldaganini hikoya qilib bermadi".

Boshlang'ich ta'lilda keyingi jarayonlarda o'quvchilarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida qayta hikoya qilishga o'rgatishda turli usullardan foydalilanildi:

- a) o'qituvchi tomonidan tuzilgan reja asosida qayta hikoya qilish ;
- b) o'quvchilarga tanish bo'lgan ikkita-uchta asarlardan birini o'z xohish-istaklari bilan qayta hikoya qilish;
- d) asarni sahnalashtirib, qayta hikoya qilish.

O'quvchilar o'rtoqlarining hikoyalarini baholashga jalb etiladi.

Bunday muhokamani uyuştirish metodik jihatdan juda murakkab bo'lib, u o'qituvchidan katta mahoratni, har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini bilishni talab etadi. Uana bu ishning murakkabligi shundan iboratki, o'quvchilar hamma hikoyalami eslarida saqlashlari lozim bo'ladi, shuning uchun o'quvchilarning hikoyasini yozib borgani ma'qul, so'ngra ularning ba'zilarini muhokamadan avval o'qib berishi kerak. Muhokamani tashkil etish o'quvchilarni qayta hikoya qilishdagi yaxshi va uomon tomonlarni sezalishga, o'rtoqlariga nisbatan xayriyohlik bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalashga yordam beradi.

Savod o'rgatish davri o'quvchilarini rasmga qarab hikoya qilishga o'rgatish quyidagicha amalgam oshiriladi.

Rasmga qarab hikoya qilish illustratsiyali materiallar tarkibiga kiradi. o'qituvchi rasmlar yordamida bolalarning tevarak-atrof to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytiradi, tafakkurlarini rivojlantiradi, xotirani mustahkamlaudi va nutqni boyitadi. Shuningdyek, ko'rish imkoniyati bo'limgan narsa va hodisalar bilan tanishtiradi, ular to'g'risidagi bilimlarini aniqlaydi va to'ldiradi, yuqori axloqiy sifatlarni (myehnatga qiziqish, ona tabiatga muhabbat, o'z o'rtoqlariga sadoqat va hokazolar) shakllantirishga yordam beradi. o'quvchilarni hikoya qilishga o'rgatish uchun narsa-buyumlarni tasvirlovchi predmetli rasmlardan, sujetli rasmlardan, ryerroduksiyalardan, peyzaj va naturmort, etud rasmlardan foydalilanildi.

M. M. Konina bolalarni rasmlarga qarab hikoya qilishga o'rgatishning quyidagi mashg'ulot turlarini ajratib ko'rsatadi: 1) narsa-buyumlarni tasvirlovchi rasmlar bo'yicha tasviriy hikoya tuzish; 2) voqeaband rasmlar bo'yicha tasviriy

hikoya tuzish; 3) voqyeaband rasmlar asosida mazmunli hikoya tuzish; 4) voqealar ketma-ket kyeladigan rasmlar to'plami asosida hikoya tuzish; 5) peyzajli (manzarali), naturmort rasmlar bo'yicha tasviriy hikoya tuzish.

Tarbiyachi hikoya qilish ushun rasm tanlashda quyidagi talablarga amal qilishi kerak: a) voqealar oddiy bo'lishi, bolaning yoshiga qarab voqyeaning murakkablashib borish tamoyiliga amal qilishi; b) mazmuni jihatidan o'quvchilarning yoshiga va nutqining rivojlanish darajasiga mos bo'lishi; d) o'quvchining xayolini, tafakkurini, estetik his-tuug'ularini, kuzatuvshanligini, nutqini rivojlantirishga yordam berishi; ye) rasmda tasvirlangan narsa buuumning ko'rinishi yoki voqyeaning biror-bir qismida haqiqatni buzib tasvirlash hollari bo'lmasligi.

Maktabgacha ta'limning keyingi bosqichlarida o'quvchilar faolligi o'sadi, nutqi takomillashadi, turli rasmlar bo'yicha mustaqil hikoya tuza oladilar. Rasmlardan foydalanilgan dars mashg'ulotlarida ularning mazmuniga qarab har xil vazifalar qo'yiladi: 1) o'quvchilarni rasmlarning mazmunini to'g'ri tushunishga o'rgatish; 2) his-tuug'ularni tarbiyalash (rasmlarning mazmuniga qarab aniq rejalahtiriladi: tabiatga muhabbat, kasb-hunarga hurmat va hokazolar); 3) rasmlar bo'uisha bog'langan hikoya tuzishga o'rgatish; 4) lug'at to'rlamini kengaytirish va faollashtirish (o'quvchilar xotirada saqlashlari lozim bo'lgan yangi so'zlar yoki aniqlanishi va mustahkamlanishi lozim bo'lgan so'zlar oldindan aniq rejalahtiriladi). O'qvchilarni hikoya qilishga o'rgatish jarayonida o'qituvchining rahbarligi o'zgaradi. Endi u shaxsan ishtirokshilikdan kuzatuvchi roliga o'tadi, zarur bo'lgandagina aralashaladi. Boshlang'ich ta'limning keyingi bosqichlarida o'quvchilarining hikoyalariga katta talablar qo'yiladi: voqealarni uzviy bog'langan holda, grammatik jihatdan to'g'ri jumlalar tuzib bauon qilish; til vositalarining (harakatlarni, sifatlarni, holatlarni va boshqalarni aniq belgilash) mustaqilligi, obrazliligi, bir maqsadga qaratilganligi, topshiriqni o'quvchi tomonidan ongli tarzda anglash uni to'g'ri bajarishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Bu jihatlarga tarbiyachining rahbarlik qilishi juda katta ahamiyatga ega, u topshiriqni tushunishga va to'g'ri bajarishga yordam byeradi. o'qituvchining namuna-hikouasi,

audiqsa, maktabga tayyorlov guruhida ularning hikoya qila olish malakasini uanada yuqori darajada rivojlanishi ushun asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchi boladan namuna-hikouaning aynan o'zini takrorlashni talab qilib qolmasdan, balki takomillashtirib, o'zgartirib, umumlashtirgan holda, adabiy obrazlardan foydalanib hikoya qilishni talab etadi. Namuna ko'pincha rasmning bir qismi uchun taalluqli bo'lib, u boshqa qismlar yuzasidan mustaqil hikoya tuzish imkonini byeradi. Maktabga tauuorlov guruhida o'qituvchining namuna-hikouasi, guruhda rasmdagi mazmunni bog'langan holda bayon etishga qiynaladigan o'quvchilar bo'lsagina taklif etiladi. Bundau mashg'ulotlarda hikoya ryejasini byerish, hikoya mazmunini va izchilligini aytib turishdan foydalanish yaxshi natijalar byeradi.

Maktabgacha ta'limning keyingi bosqichlarida rasmga qarab hikoya tuzishning hamma turlaridan foydalaniladi: narsa-buyumlarni tasvirlovshi va voqeaband rasmlar bo'yicha tasviriu hikoya tuzish; peyzajli va naturmortli rasmlar bo'yicha tasviriy hikoya tuzish; rasmlar seriyalari - to'plamlari bo'yicha, masalan, "Vizning uyer maudonchamiz qishda va yozda") hikoya tuzish.

Rasmlar to'plami bo'yicha hikoya tuzish malakasini takomillashtirishda quyidagi usullar yordam beradi: jamoa bo'lib hikoya tuzish - avval boshlanishini o'qituvchi tuzadi, o'quvchilar tugatishadi; bir o'quvchi boshlaydi, boshqasi davom ettiradi.

Quyida misol tariqasida bog'lanishli nutqni rivohantirish bo'yicha mashg'ulot ishlanmasini keltiramiz. Bu mashg'ulotda nutqning turli vazifalari hal etiladi.

I qism. Vog'lanishli nutq. "Tipratikanlar" rasmi bo'yicha hikoya qilish .

Dastur mazmuni. O'quvchilarning yovvoyi hayvonlar (tipratikanlar) to'g'risidagi mavjud bilimlaridan foudalanib, rasm bo'yicha hikoya qilishga o'rgatish.

II qism. Lug'at ishi. Torishmoqlarni topish.

Dastur mazmuni. O'quvchilarni torishmoqlardagi obrazli ifodalarning mazmunini tushunishga o'rgatish.

III qism. Nutqning tovush madaniuatini tarbiyalash. "r-l" tovushlarining to'g'ri talaffuzini mustahkamlash.

Dastur mazmuni. "r-l" tovushlarining to'g'ri talaffuzini aniqlash, mhstahkamlash, fonetik idrokni o'stirish. "r-l" tovusulari bo'lgan so'zlarni aniq va sho'zib talaffuz etishga o'rgatish.

Dars mashg'ulotining borishi. O'qituvchi bolalarga tipratikan haqidagi shye'rni aytib beradi.

So'ngra tarbiyachi so'raydi: "Tirratikanning tanasi nimalar bilan qoplangan?" (Ignalar bilan.) "Tipratikan qanday?" (Tikanli.) Tirratikan haqidagi torishmoqni tinglashni taklif etadi:

Tikuvchimas, bichuvchimas,

Ninasi ancha ekan, yoviga sanchar ekan.

So'ng shu topishmoq yuzasidan ham savollar beradi: "Nima uchun: ninasi ansha yekan, yoviga sanshar yekan" deb autngan? (Chunki uning tanasi ighalar bilan qorlangan, bironta yovvoyi hayvon uni yemoqchi bo'lsa, dumaloqlanib olib ighalarini tikkaytirib oladi, natijada uning ighalari yovga (dushmaniga) sanshiladi. biz ham uni tutib olmoqchi bo'lsak, ighalarini qo'limizga sanshib olishi mumkin. Unga tegib bo'lmaydi, tikanli.)

Uana bitta torishmoq aytadi:

"Ignalarini o'zi bilan olib yuradi,

Tikishni esa bilmaydi".

O'qituvchi so'raydi: Nima ushun "Tikishni bilmaydi" deyilgan? Uana qanday ignalar bor, ular nima ushun kerak? (Tikuv ignalari, tikish uchun.) Tipratikanning ighalari bilan tikish ushun ishlatiladigan ignalar nimasi bilan o'xhash? (ular o'tkir, uzun, ingishka.)

Tarbiyachi "Tipratikanlar" rasmini ("Yoyyoyi hauvomar" seriyali rasmlardan) ko'rsatadi. O'quvchilarga uni diqqat bilan ko'rib chiqishni taklif etadi va savollar beradi: "Bu rasmda nima tasvirlangan? Ona tipratikan nima qilyapti? Tipratikan bolalarishi? Tirratikanlar nima yeydi? Unga ighalar nima uchun kerak? U qandau? Tirratikanni nima bilan taqqoslash mumkin?" Javoblarni tinglaydi va

bolalarga tirratikanlar haqida autilganlarni esdan chiqarmaslikni aytadi. Shu rasm uuzasidan bir bolaning hikoyasi:

"Ona tipratikan va tipratikanchalar yashashar yekan. Kunlardan bir kuni ular o'tloqqa sayr qilgani borishibdi. Ona tirratikan shilliqqurtlarni ko'rib ularga tikilib qaray boshlabdi. Ikkita tipratikancha esa qo'ng'izga qarab o'ylashibdi, bu kim yekan, bitta tipratikancha esa xuddi koptokka o'xshab, dum-dhmalq bo'lib olibdi. Qo'ng'iz yiqilib tushgan edi, tirratikansha qo'rqib, tumshug'ini ichkariga yashirdi".

Ikkihchi bir o'quvchining hikoyasi: "Bir bor yekan, bir yo'q ekan. Ona tipratikan bilan tipratikanchalar yashar yekan. Kunlardan bir kun ular sayr qilgani bog'ga borishibdi. Ona tirratikan shilliqqurtni ko'rib qoldi. Ikkita kishkina tikanli tirratikanshalar shuvalchangni ko'rib qolib, unga qarab turishibdi va qandau taqsimlab olishga hauron".

Ushinshi o'quvchining hikoyasi: "Tirratikanshalar va ona tirratikan yashar yekan. Kunlardan bir kuni ular o'rmonga sayr qilgani borishibdi. Ikkita tipratikancha qo'ng'izni ushlab olishdi va uni taqsimlay olishmadi. Ular qarasalar, shox-shabbalarning ostida bir ko'k rangdagi dum-dumaloq narsa. Bu ularning akalari bo'lib, u qo'rqqanidan xuddi koptokka o'xshab dum-dhmalq bo'lib olgan edi. Ular akalariga qaraotganlarida, qo'ng'iz qochib qoldi".

O'qituvchi o'quvchilardan kimning hikoyasi nimasi bilan ko'proq yoqqanligini, har bir tinglagen hikoyalarida qandau uangi va qiziqarli narsalarni yeshitganliklarini so'rab oladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari sekin-astalik bilan rasmda tasvirlangan tabiat manzaralarini (peyzajni) tasvirlash bilan o'z hikoyalarini to'ldirib boradilar. Masalan, "Qishki o'yinlar" rasmi yuzasidan o'quvchi shunday hikoya qilishi mumkin: "Vu rasmda qish tasvirlangan. Kun iliq va quyoshli. Osmon ko'm-ko'k, beg'ubor.. ". Rasm bo'yicha hikoya qilishga bunday tasvirlashni kiritish o'quvchilarni manzarali (peyzajli) va naturmort rasmlar bo'yicha hikoya tuzishga tayyorlaydi. Vu hikoya turi mакtabga tayyorlov guruhida tashkil etiladi. O'quvchilarni manzarali va naturmort rasmlar bo'yicha hikoya qilishga o'rgatishning qiziqarli va samarali uslubiyotini N. M. Zubareva ishlab chiqqan.

Jumladan, ushbu uslubiyotni u quyidagicha yoritadi: " O'quvchilarni manzarali rasmni idrok qilishga sekin-astalik bilan, ularning emotsional kayfiyatlariga tayangan holda, tabiatni kuzatish bilan bog'lab o'rgatib boriladi. Manzarali rasmni idrok qilishni tevarak-atrofdagi tabiatning rang-barangugini va chiroyini kuzatish bilan (quyoshning chiqishi va botishi, momaqaldiroq, oqshom, ob-havo (bulutli, ochiq, izg'irin shamol va boshqalar) bog'lab olib borish kerak. Manzarali rasmni ko'rib chiqishda quyidagi savollardan foydalanish maqsadga muvofiqidir: Rassom bizga bu o'rmon haqida (ushbu daraxt, maysazor, o'tloq haqida) nimalarni hikoya qilib bermoqchi bo'lgan? Nima ushun rassom o'zining rasmini shunday nomlagan? Rassomga nima qiziqroq, chiroyliroq ko'rindi? O'qituvchining "nima haqida ... ", "nima to'g'risida ..." degan savollari rasmning tavsifini aniqlashga, tabiat manzarasi to'g'risida aniq tavsif berishga yordam beradi. U yoki bu rasmning badiiy g'oyasini yaxshi tushunish va ahiqlash ushun musiqadan, poetik (she'riy) asarlardan foydalanish ma'qul. Vu o'quvchilarda, bir tomondan, barqaror diqqatning vujudga kelishiga yordam bersa, ikkinchi tomohdan, ularning kayfiyatini ko'taradi, tasvirlash uchun o'xshatishlar, epitetlar, taqqoslashlar va kinoyalarni tanlashga yordam beradi".

Masalan, Safo Ochilning, "Ko'klam qo'shig'i", Shukur Sa'dullaning "Vahor keldi", Zafar Diyorning "Qor", she'rlaridan, tabiat to'g'risidagi o'zbek xalq qo'shiq va laparlaridan foydalanish mumkin.

Rasmning g'oyasini tushunishga yordam berishda ushbu metodik usul ham yordam berishi mumkin: o'qituvchi o'quvchilardan qor bilan o'ynayotganlarida, uyda onalari bo'limganda, shifokor emlash uchun kelganda va hokazo vaziyatlarda kayfiyatları qanday bo'lishini so'raydi. O'qituvchining namuna-hikoyasi yoki adabiu asarni o'qib berishi katta ahamiyatga ega. Masalan, V. Baksheyevning "Yashil bahor", O'.Tansiqboyevning "Kuz" rasmini ko'zdan kechirishda mashg'luotni O'tkir Hoshimovning "Tomshi haqida ertak" hikoyasini, Qudrat Hikmatning "Bu qaysi fasl?" asaridan parcha o'qib berish bilan tugallash mumkin.

Savod o'rgatishga tayyorlov guruhida naturmortlarni ko'rib chiqish va tasvirlash mashg'uloti tashkil etiladi. O'qituvchi doskaga uncha murakkab

bo'limgan rasmli (naturmortni) yoki rasmida tasvirlangan idishlardan, gullardan, mevalardan stol ustida, xuddi rasmida tasvirlangandek, "naturmort" yasaydi. So'ngra o'quvchilarning o'zлari narsa-buyumlardan "naturmort" yasaydilar va bir vaqtning o'zida "natusmortni" tasvirlaydilar: rangini, bo'yoqlarning mosligini, narsalarning shaklini aytib tasvirlaydilar, keyin esa rasmdagi "naturmort" bilan taqqoslaydilar. "Stoldagi naturmort"ni ko'rib chiqish bolalarga narsa-buyumlarning turli sifat xususiyatlarini, belgilarini ahiqlashga yordam beradi, ularning estetik sifatlari to'g'risidagi tasavvurlari doirasini kengaytirishga ta'sir etadi. Bola sekin-astalik bilan mustaqil ravishda naturmortlarni tasvirlashga o'tadi. Ushbu naturmort rasmlardan foydalanishi mumkin: D. Nalbahdyan "Gullar", I. Levitan "Siren", A. Laktinov "Fevral", I. Mashkov "Tarpuz bilan naturmort", R. Kanchalov "Deraza oldidagi siren", A. Fatxuuin "Nishona". Shnuingdek, o'qituvchi mashg'ulotda fotoetud reproduksiyalaridan ham foydalanishi mumkin. Y. Ryumkinning "Olmalar", Y. Ignatovichning "Momaqaldiroq" va "Moychechak" rasmlarini ko'zdan kechirish yaxshi natijalar beradi. Savod o'rgatish davrida bolalarni o'yinchoqlarga qarab hikoya qilishga o'rgatish mumkin.

Bolalarning eng sevimli va qiziqarli dars mashg'ulotlaridan biri bu o'yinchoqlarni ko'rib chiqish va tasvirlashdir. O'yinchoqlarga qarab hikoya tuzishning ma'nosi juda keng. U o'quvchilarda axloqiy sifatlarni tarbiyalaydi, birgalikda hikoya qilish malakalarini rivojlantiradi, xotira, diqqat va irodani mashq qildiradi. Hayotda hosil bo'lgan tajribalarini, idroklarini mustahkamlaydi; kam gapiradigan bolalarning nutqiy muloqotga kirishib ketishiga ta'sir etadi, ularning hayotlarini sermazmun va quvhoq qiladi; lug'atini faollashtiradi, bog'langan nutqning rivojlanishiga yordam beradi. O'yinchoqlarga qarab hikoya tuzish maktabgvha ta'limning kichik guruqlaridan boshlab savod o'rgatish davri jarayonigacha davom etadi. O'yinchoqlar bo'yicha mashg'ulotni tashkil etishda o'yinchoqlarni tanlashga jiddiy e'tibor berish kerak. Kichik guruh bolalariga tasvirlash ushun taklif etiladigan o'yinchoqlar o'zining ba'zi bir xususiyatlariga ega: o'yinchoqlar nomi bo'yicha bir xil bo'lishi mumkin, biroq tashqi ko'rinishi jihatidan bir-biridan farq qilishi kerak (katta va kichkina ayiqchalar; sochi mayda

o'rilgan, do'ppi kiygan va sochiga lyenta taqilgan qo'g'irchoq; qizh va yasli piramidalar, kubiklar va hokazolar). O'yinchoqlarni bu tartibda tanlash bolalarning lug'atini faollashtirishga va taqqoslash ustidan foydalanish asosida bog'lanishli nutqini rivohtanririshga yordam beradi.

Katta va savod o'rgatishga tayyorlov guruhlarida taxminan quyidagi o'yinchoqlarni tanlash mumkin (tarbiyachi oldindan o'yinchoqlar to'plami ro'yxatini tuzib qo'yadi):

Sentabr. Qog'ozdan yasalgan to'q sariq, zarg'aldoqrang bayroqcha; matodan yasalgan yashil rangdagi bayroqcha; uog'oshdan yasalgan qo'ziqorin; plastmassadan va metalldan qilingan chelakchalar; har xil kattallikdagi qo'g'irchoqlar to'plami; qayiqchalar (o'yinchoqlar nimadan yasalganligini, nomini, rangini bildiruvchi so'zlarni mustahkamlash ushun).

Noyabr. Soatlar, pochta qutisi, tyelyefon, paroxod, aytomobillar, samolyotlar (shakl va fazoni bildiruvchi, oldinda, yuqorida, orqada kabi so'zlarni mustahkamlash va tushuntiruvshi hikoyalari tuzish ushun).

Yanvar. Juft o'yinchoqlar to'plami: past va baland ikkita piramida; ikki xil avtomobil; mushusk va kushuk; har xil rangdagi ikkita otcha; ikkita har xil qo'g'irchoq (o'ngda, chapda, yonda, ketma-ket so'zlarini mustahkamlash hamda taqqoslovchi hikoya tuzish uchun).

O'quvchilarni o'z tajribalaridan (xotiradan) hikoya qilib berishga o'rgatish

Vu hikoya turi o'quvchilarning bog'lahishli nutqini rivohtanririshga, muloqotga o'rgatishda, o'z his-tuug'ularidan foudalanish va uni bog'langan holda bauon etishga odatlantiradi. O'z fikrlarini aniq, ravshan va tushunarli tarzda bauon etish malakasi shakhailadi. Vu hikoya turining rivojlanish asosi bolalar hauotining mazmunidir. O'quvchilar hikouasining mavzulari ushun sayrlar, sauhatlar, mehhat va bayramlar asos bo'ladi. Tevarak-atrofdagi narsa-buuumlar va hodisalarni kuzatish, she'rlar, badiiy asarlardan rarshalar o'qib berish, tasvirlashga asoslangan ta'limiy o'yinlar o'tkazish, bolalar nutqihi badiiy so'z va iboralar bilan boyitish ularni o'z hauotlaridagi qiziq voqealar haqida hikoya qilib byera olish

qobiliyatini rivojlantirishning muhim shartlari hisoblanadi. O'z tajribalaridan hikoya tuzish mактабгача та'limning o'rta guruhidan boshlanadi.

Bolalarga o'zlariga tanish bo'lган, yaqinda bo'lib o'tgan aniq-ravshan voqealar mavzu sifatida taklif etiladi: "Bizning bauram", "Biz onamizga qanday sovg'a tayyorladik?", "Biz anhorga qahday bordik?". Yaqin atrofdagi kishilar myehnati bilan bog'liq bo'lган mavzularni ham taklif etish mumkin: "Oshxohada kim ishlaydi?", "Zulfiya ora - bizning farroshimiz". Shuningdyek, ota-onalarning myehnatlari bilan bog'liq bo'lган mavzularda ("Mening otam va onam qayerda ishlaydilar?") hikoyalar tuzdirish mummmkin. Yuqoridagi mavzularda mashg'ulot o'tkazishdan avval tarbiyachi bolalarni oshxonaga olib boradi, farrosh myehnati bilan tahishtiradi, ota-onalarga bolalariga o'z kasblari haqida (Qayerda kim bo'lib ishlaydi? bu kasb nimasi bilan muhim?) gapirib berishlarini aytadi. Sayrlar, o'quvchilarning myehnat, tabiat to'g'risida kichik hikoyalar tuzishlari ushun asos bo'lib hisobiailadi. Avval bolalar narsa-buyumlar yoki tabiatdagi mehhhat va turli hodisalar haqida voqeaviy hikoyalar tuzishga o'rgatiladi. ("Biz tomorqada qanday ishладик?", "Biz qanday qilib kushukshani boqdik?") O'qituvshi hikoya ushun mavzu tanlar yekan, u bolalarni bog'chaga yaqin bo'lган tabiat mahzaralari bilan tanishtiradi, savohat yoki saurning mazmunini va maqsadini belgilaydi. O'quvchilarni hikoya tuzishga tayyorlash ishlari sayohat, kuzatishlar vaqtida olib boriladi. O'qituvshi bolalarga sayohatda, sayrda ko'rgan kuzatganlari bo'yicha savollar beradi.

Dars mashg'uloti oxirida tarbiyachi: "Vizning bog'imiz haqida nima deyish mumkin, u qandau?" dyegan savol beradi va hajmi uhcha katta bo'lмаган hikouaning nammasini beradi. O'qituvshi o'quvchilarning taassurotlarini mustahkamlash maqsadida ta'limiy o'yin o'tkazadi. Rasmni ko'rishni taklif etadi yoki she'r aytib beradi. Taklif yetngan mavzuda hikoya qilishga o'rgatishni jamoa bo'lib hikoya tuzishdan boshlash ma'qul. O'qituvshi hikoyani boshlaydi, o'quvchilar esa uchun katta bo'lмаган tasvirlashlar bilan hikoya qilib beradilar. Tarbiyachi hikoyani yozib borishi va mashg'ulotning oxirida o'qib berishi maqsadga muvofiqdir. O'z tajribalaridan (xotiradan) hikoya tuzishning muhim

metodik nsullardan biri - bu bolalar diqqatilii qaysidir, qandaudir voqeani eslash va uni o'z hikoyasi yuzasidan o'tkazadigan suhbatida esga tushirishni aytadi, hikoyaning asosiy qismlarini belgilaydi (avval nimani hikoya qilamiz, kyeuin-shi, nima bilan (qanday) yakunlaymiz).

Shuningdyek, bu hikoya turida o'qituvchining hamma hikouasi ham katta rol o'ynaydi. Bolalarni o'z tajribalaridan hikoya qilishga o'rgatish ularni o'zlariga yaqinroq bo'lgan mayzuda ansha uzoq so'zlashishga o'rgatadi va ijodiy hikoya tuzishga zamin tayyorlaydi. Boshlang'ich inflarning keyingi bosqichida bu hikoya turining roli ansha ortadi, bli guruhdagi o'quvchilar ko'rgazmali qurolsiz hikoya tuza boshlaydilar. Xotiradan hikoya tuzishning hamma turlari bo'yicha (shaxsiy, jamoa tajribalaridan, ko'rgazmali qurolsiz tasvirlashga oid ta'limiy o'yinlar) mashg'ulotlar tashkil etiladi.

Bolalarining ijtimoiy hayot hodisalari, kishilar myehnati bilan tahishish doirasi kengayadi. Shuning ushun ham ularning hikoya mayzulari murakkablashishi mumkin. Masalan, 1-sinf o'quvchilari qurilishdagi kishilarning myehnatlarini kuzatganlaridan so'ng, tikuv ustaxonasiga (atelyega) va boshqalarga sayohatga borishgach, ularga quyidagi mavzularda hikoya tuzish taklif etilishi mumkin: "Bu uuni kim qurban?", "Kiyimlarni qanday tikadilar?", "Bizning dam olishimiz ushun kimlar myehnat qilgan?" va hokazo.

Maktabgacha ta'limning keyingi bosqichlarida esa quyidagi mayzular berilishi mumkin: "Biz kutubxonada bo'ldik", "Maktabdag'i darslar", "Biz shirinliklar fabrikasida nimalarni ko'rdik?" va hokazo. Ushbu guruhlarda tabiat to'g'risidagi mavzular ham murakkablashadi.

Keyinchalik o'quvchilar hikoyasi ushun bauramlar, kattalar myehnati, tabiat manzaralari haqida kichik rasmi li albomcha tuzish mumkikh. O'z shaxsiy tajribasidan hikoya tuzishga byemor o'rtog'iga yoki boshqa shahardagi tengdoshlariga jamoa bo'lib xat matni tuzish ham kiradi.

**II BOB. BOLALARDA MUSTAQIL BADIY NUTQNI**  
**SHAKLLANTRISHNING HAMDA BADIY NUTQ FAOLIYATIGA**  
**O'RGATISHNING AMALIY ASOSLARI.**

**2.1. MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARNI**  
**BOLALAR BADIY ADABIYOTI BILAN TANISHTIRISHGA**  
**QOYILADIGAN TALAB VA VAZIFALAR.**

Axloqan va estetik tarbiyalashning qudratli, ta'sirchan quroli sifatida xizmat qiladi, u bola nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan ta'sir ko'rsatadi.

She'riy obrazlarda badiiy adabiyot jamiyat va tabiat hayotini, insoniy his-tuyg'ular va o'zaro munosabatlar olamini ochib beradi hamda tushuntiradi. Bu namunalar o'z ta'sir kuchiga ko'ra turlicha bo'ladi: hikoyalarda bolalar so'zlarning lo'ndaligi va aniqligini bilib oladilar, sherkarda o'zbekcha nutqning musiqiyligini, ohangdorligani ilg'aydilar, xalq ertaklari ular oldida tilning aniqligi va ifodalilagini namoyon qiladi, ona tilidagi nutqning humor, jonli va obrazli taqqoslashlar, ifodalarga qanchalik boyligini ko'rsatadi.

Bolalar badiiy asarlar qahramonlariga qayg'urishni o'rganganlaridan so'ng ular yaqinlari va atrofdagi odamlar kayfiyatini payqay boshlaydilar. Ularda insonparvarlik his-tuyg'ulari – birovning dardiga sherik bo'lish, yaxshilik qilish, adolatsizlikka nisbatan qarshilik ko'rsatish qobiliyati uyg'ona boshlaydi. Bu prinsipiallik, halollik, haqiqiy fuqarolik xislari tarbiyalanadigan poydevordir. His-tuyg'ular bilimdan oldin keladi. Kimki haqiqatni his qilmagan bo'lsa, u buni tushunmagan va tanimagandir.

Xalq – bolalarning betakror o'qituvchisidir. Xalq asarlaridan boshqa hyech qaysi asarlarda qiyin talaffuz qilinadigan tovushlarning bunday qoyilmaqom qilib joylashtirilishini, jarangiga ko'ra bir-biridan zo'rg'a farq qiladigan so'zlarning hayron qolarli darajada yonma-yon terilishini uchratish qiyin. Beozor hazillar, nozik humor, sanoq she'rlar – pedagogik ta'sir ko'rsatishning samarali vositasi, dangasalik, qo'rkoqlik, o'jarlik, injiqlik, faqat o'zini o'yash (egoizm) kabi xislatlarga qarshi yaxshigina «malhamdir».

Ertaklar olamiga sayohat bolalar tasavvurini, ularning xayolot olamini,

fantaziyasini rivojlantiradi. Eng yaxshi adabiy namunalar asosida insonparvarlik ruhida tarbiyalangan bolalar o'z hikoyalarida va ertaklarida mazlumlar va zaiflarni himoya qilish, yomonlarni jazolash orqali o'zlarining adolatparvarligani namoyon qiladilar va albatta bolalar estetik, ayniqsa axloqiy tasavvurlarni kattalarning (otanonalar, pedagoglar) o'qib chiqilgan asarlar bo'yicha nasihatnamo muloxazalaridan, tayyorlangan savollarga javob berishdan emas, balki aynan badiiy asarlardan olishlari lozim. O'qib chiqilgan asar bo'yicha haddan tashqari ko'p nasihat qilish katta, ko'pincha esa tuzatib bo'lmas ziyon yetkazadi: mayda-chuyda savollar bilan «sochib tashlangan» asar bolalar ko'z o'ngida o'zining barcha jozibadorligini yo'qotadi, oqibatda unga nisbatan bolalarning ham qiziqishi yo'qoladi. Shuning uchun badiiy matning tarbiya imkoniyatlariga to'liq tayanish zarur.

K.D. Ushinskiy shunday yozadi: «Bola ona tilini o'rganar ekan, u faqat shartli tovushlarnigina o'rganmaydi. Balki ona tilining ona ko'kragidan ma'naviy hayot va kuchni ham emadi. U bolaga tabiatni shunday tushuntiradiki, boshqa hyech bir tabiatshunos bunga qodir emas, u atrofdagi odamlar xarakteri u yashayotgan jamiyat, uning tarixi va intilishlarini shunday tanishtiradiki, boshqa hyech qanday tarixchi bunga qodir emas, u bolani xalq udumlari, xalq she'riyatiga shunday olib kiradiki, boshqa hyech bir estetik bunga qodir emas, nihoyat u bolaga shunday mantiqiy tushunchalar va falsafiy qarashlarni beradiki, albatta, boshqa biron-bir faylasuf bunga qodir emas». Buyuk pedagogning ushbu so'zlarida nafaqat ona tilini o'zlashtirish natijalari, balki uni o'rganish metodi: «nafaqat ko'p narsani o'rgatadigan, balki hayron qolarli darajada oson, qandaydir yetishib bo'lmaydigan metod asosida o'qitadigan o'qituvchi tiliga ishonch ko'rsatib berilgan.

Shunday qilib, ona tilidagi muayyan badiiy asarni egallahda bolalarga yordam berar ekan, pedagog har tomonlama tarbiyalash vazifasini ham bajaradi.

Maktabgacha davrdagi har bir yosh bosqichi o'zining nutqiy rivojlantirish vazifalarini qo'yadi. Yoshi o'sib borishi bilan adabiy asarlarni qabul qilish darajasi ham ortib borishi tufayli ular asta-sekin murakkablashtirilib boriladi. Bolalarda she'rtinlay olish qobiliyati rivojlanadi. Shundan kelib chiqqan holda kattalar bolalarning yosh imkoniyatlarini bilishlari zarur. Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan

holda ularni har bir yosh bosqichida bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirib borish masalalarini ko'rib chiqamiz.

Ilk yoshdagi bolalarning badiiy asarlarni qabul qilishining asosi –bu ularga nisbatan emosional javob, turli xil ohanglarni ilg'ab olish, ularga munosabat bildirish, imkoniyat darajasidagi adabiy asarlar qahramonlarini tanib olish va ular haqida qayg'urishdir. Ushbu yoshdagi bolalar uchun kichik shakldaga she'riyat, ya'ni folklor va mualliflik she'riyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bosh qahramonlari bolalar, hayvonlar bo'lgan, o'yinli va maishiy vaziyatlar bayon qilingan asarlar bolalarga juda qiziqarlidir.

Bola kattalar bilan birgalikda matallar va sanoq she'rlar syujetlari asosida ishtiyoq bilan o'yinlar tashkil qiladi, u tovush taqlidiga va folklor yo'naliqidagi bir maromdag'i takrorlashlarga quloq tutadi hamda ularga takdid qiladi. Bola adabiy asarlarda bayon qilingan voqyealarni juda jiddiy qabul qiladi. O'ziga yoqib qolgan ertakni bir necha marta eshitishga ham tayyor. Uning qahramonlarini illyustrasiyalar va o'yinchoqlarda xursand bo'lib tanib oladi, har gal ertakning baxtli yakunini berilib kutgani holda syujet harakatlarining odatdag'i ketma-ketligini sinchkovlik bilan kuzatib boradi. Kichkintoylarga mo'ljallangan badiiy asarlar soni unchalik ko'p emas. Shuning uchun ular ko'p martalab takror jaranglashi, bolaning kundalik hayotiga kirib borishi va unda badiiy asarni his qilishning birlamchi asoslarini rivojlantirishi lozim. Ilk yoshdagi bolalarga o'qib beriladigan asarlar doirasini asosan folklor asarlari tashkil qilali. Ular eng yaxshi tarzda ilk yoshdagi bolalar ehtiyojlariga mos keladi, chunki u so'z, ohang, musiqa va harakatni o'zida jamlagandir. Bolalar hayvonlar haqidaga xalq ertaklari bilan tanishadilar: «Sholg'om», «Bo'g'irsoq», «Uycha», «Chipor tovuq» va boshqalar.

Maktabgacha ta'lim muassasalari va ota-onalarning vazifalari:

1 bolaga so'z san'ati olamini ochish, kitobga qiziqish va mehrni, uni tinglash va tushunishni, xayoliy voqyealarga emosional munosabat bildirishni, qahramonlar haqida qaygurish va «ularga yordamlashish» hissini tarbiyalash, ya'ni bolalarni badiiy rivojlantirish, ularni bo'lajak kitobxon sifatida shakllantirish;

- 2 hikoyani tinglash va tengdoshlari bilan birgalikda bilish malakasini hosil qilish;
- 3 bolalarga sanoq she'r matniga mos keluvchi o'yin harakatlarini bajarishni o'rgatish;
- 4 bolalarda xalq asarlari, she'rlar, qo'shiqlar ohangdorligi va musiqiyligiga nisbatan emosional munosabat bildirishni tarbiyalash;
- 5 bolalarga adabiy asarlar ko'p martalab o'qilganida va hikoya qilinganida ularning qahramonlarini tanib olishda yordamlashish;
- 6 bolaning she'rlar va ertaklardan ayrim so'zlar hamda ifodalarni takrorlashga rag'batlantirish;
- 7 illyustrasiyalarni ko'zdan kechirishni, ulardan adabiy asarlar qahramonlarini tanib olishni va illyustrasiya mazmuni bo'yicha oddiy savollarga javob berishni o'rgatish (Kim bu? Quyonning qulokdari qani? U nima qilayapti? Sichqon qani? va h.k.).
- 8 bolalarga dastlab ko'rgazmali asosda (suratlar, o'yinchoqlar, harakatlar), so'ngra esa ko'rgazmasiz taqdim qilinayotgan qisqa she'rlar, sanoq she'rlar, ertaklardagi harakatlar rivojini kuzatib borishni o'rgatish;
- 9 bolani ilk yoshdagi bolalar uchun maxsus chop etilgan (rang-barang, yirik suratli, muqovasi qattiq va yuviladigan) kitoblardan mustaqil ravishda foydalanishga undash.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish bolalarda adabiy asarlarni estetik qabul qilish qobiliyati va mahoratini tarbiyalash, ularda badiiy-nutqiy faoliyatni rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir.

Ilk yoshdagi bolalar bilan pedagogik ishlar mazmuni va shartlari qanday bo'lmog'i lozim?

Tarbiyachining badiiy asarni o'qish yoki hikoya qilish jarayoniga u xuddi ana shu voqyealar tomoshabini yoki ishtirokchisi sifatida emosional tarzda qo'shilib ketishi bolalar bilan pedagogik ishlarni olib borishning eng muhim sharti hisoblanadi. Aynan bir asarning o'zi ko'p marta takrorlanishi lozim: tarbiyachi suratli kitobdan «Sholg'om» ertagini o'qiydi, so'ngra uni kitobsiz hikoya qilib

beradi, o'yinchoqlar bilan ko'rsatadi, guruhga boshqa rassom tomonidan ishlangan illyustrasiyalarni olib keladi, bolalar bilan birgalikda o'qiydi va hikoya qiladi.

Kattalar badiiy so'zni bolaning kundalik hayotiga doimiy ravishda kiritib borishlari (Uxla, qarog'im mening), bolaning o'z ismini u yoki bu o'yin yohud maishiy vaziyatga mos keluvchi xalq qo'shib aytishlari lozim (Allayo-alla, Gulnor qizim uklasim, alla va h.k.). Tarbiyachi (kattalar) bolalar bilan birgalikda tanish va notanish kitoblardagi illyustrasiyalarni ko'zdan kechirishi, bolalarni tanish asarlar, illyustrasiyalar va o'yinchoqlar qaqraronlarini tanib olishga, qahramon ismi va uning harakatlari nomini aytishga, shuningdek, badiiy matnning ayrim ifodali qismlarini aytib berishga («Qochib ketdim bobomdan, qochib ketdim momomdan,...») undashi darkor.

Ayniksa, 4-5 nafar boladan iborat bo'lgan kichik guruhlar bilan kitoblarni ko'rib chiqish va o'qish, shuningdek, har bir bolaning tanlab olingen va guruhda saqlanayotgan kitoblardan erkin foydalanishi uchun tegishli sharoit yaratilishi alohida ahamiyatga egadir. Bolalarga barcha notanish so'zlar ma'nosini darhol tushuntirib berishga, xususan obrazli tavsiflash yohud u yoki bu ertakdan kelib chiqadigan ma'noni o'z so'zlari bilan aytib berishga intilmaslik zarur.

Ilk yoshdagi bolalarga badiiy adabiyotni tanishtirish jarayonida ularda bilish va nutqiy qobiliyatlarini hamda nisbatan tegishli munosabatni rivojlantirish zarur.

*Bilish qobiliyati:* kattalarning hikoya yoki kitob o'qishlarini diqqat bilan tinglash, tanish asarlarni esda saqlab qolish va uni takror tinglaganda ertak, hikoya, illyustrasiya, o'yinchoqlar qahramonlarini tanib olish, she'rlar qatorlari, kichik shakldagi asarlar matnini esda saqlab qolish.

*Nutqiy malaka:* asar, sanoq she'r, o'yinlar, qo'shiqlar, she'rlar mazmunini so'z, imo-ishora, harakat orqali tasvirlash; so'zni va tanish she'rlar qatorlarini ilib olish, ularning ayrimlarini yoddan aytib berish.

*Munosabat:* badiiy asar bilan uchrashuvdan xursandchilikni, emosional hamkorlikdan quvonchni va birgalikdagi qaygurishlarni ifodalash. Tarbiyachi bolani kattalar va bolalar bilan birgalikda she'rlar, qo'shiqlar aytishda ishtiroy etishga, tovushlar, jarangdor qofiya, so'zlar bilan o'ynashdan zavq olishga undaydi.

Bolaning o'zlashtirish darajasi quyidagalarda ifodalanadi: bola kitob tinglash, o'yinda ishtirok etish haqidaga taklifga faol javob beradi. Uning o'zi kattalardan she'rlar, ertaklar o'qib berishni iltimos qiladi. Qabul qilishga oson qo'shiladi. Asar mazmuniga oid savollarni diqqat bilan tinglaydi va ularga javob beradi. Matnga mos o'yin harakatlarini bajaradi. Tinglagan asarlarining mazmunini biladi, illyustrasiyalarda tanish asar epizodlari va ularning qahramonlarini taniydi. O'qilgan kitobga nisbatan yorqin munosabat bildiradi, kuladi, quvonadi, yig'laydi, qo'shiqlar, sanoq, she'rlarni jo'r bo'lib aytishda faol ishtirok etadi. Ilk yoshdagi bolalarda yuqorida aytib o'tilgan bilish, nutqiy qobiliyatlarni, badiiy asarga nisbatan munosabatni shakllantirish uchun ularga badiiy asarlarni tanishtirish metodikasini bilish va uni to'g'ri qo'llay olish zarur.

Kichik guruhdan boshlab bolalarga janrlarni farqlashni o'rgatish lozim. Tarbiyachi badiiy asar janri nomini albatta aytishi darkor: «Men sizlarga ertak aytib beraman», «Hikoya, she'r o'qib beraman».

Janrlar yo'nalishini, ularning xususiyatini chuqur tushunish nisbatan katta yoshlarda ro'y beradi. Ilk yoshda esa bolalar janr nomini eshitganlari holda uni shunchaki esda saqlab qoladilar. «Laylak bilan tulki» – bu ertak, Y.Sulaymon yozgan «Buvim» – bu she'r. «Men sizlarga she'r hikoya qilib beraman», «Ertak o'qib beraman» kabi noto'g'ri ifodalardan saqlanish lozim. Janr nomi aniq va to'g'ri berilishi zarur: ertak, hikoya, she'r. Ertak aytildi, hikoya o'qiladi, she'r o'qiladi va yod olinadi. Turli adabiy janrlar turlicha usulda yetkazishni talab qiladi. Ilk yoshdagi bolalarga ertakni kitobdan o'qib emas, balki uni aytib bergen ma'qul. Bu emosional ta'sirni kuchaytiradi va o'z navbatida ertakning asosiy mazmunini tushunishga yordam beradi. Katta yoshli odam kitobga emas, bolalarga qaraganida u xuddi har bir bola bilan suhbatlashgandek bo'ladi va shu bilan monologik nutqni eshitish hamda tushunishdek muhim qobiliyatini tarbiyalaydi.

Agarda ertak mazmuni unchalik katta bo'lmasa, uni ikki-uch marta hikoya qilish yoki eng yorkin joylarini takrorlash mumkin. Uni aytib bo'lgandan so'ng bolalarga shunday sharoitni vujudga keltirish tavsiya qilinadiki, toki ular eng qiziqarli jihatlarni esga olish va ularni ertakdagisi so'zlar bilan takrorlashga majbur

bo'lsin. Pedagog vaziyat yordamida bolalar bilan xalq ertaklari qahramonlarining qo'shiqlarini, qahramonlar ismlarini takrorlash, obrazli so'zlarni bolalar ongida mustahkamlashni amalga oshiradi va ular buni o'z nutqlarida qo'llay boshlaydilar.

Maktabgacha kichik yoshdag'i bolalarga o'qib berish uchun unchalik katta bo'limgan hikoya va she'rlar (Mirmuhsinning «Olxo'ri», Q.Abdullayevaning «Quyon» she'rlari) tavsiya qilinadi, bular kichik tinglovchilarda ijobiy emosiyalarni tarbiyalashga yordam beradi. Ularning bolaning shaxsiy tajribasiga yaqin bo'lgan oson mazmuni oddiy va sodda shaklda ifodalangan: qofiyalar o'xshash, she'r katorlari qisqa. Bolalar ularni takrorlar ekan, qatorlarning jarangdorligini, she'rning musiqiyligini ilg'ab oladilar, ularni oson qabul qiladilar. So'ngra esa butun she'rni esda saqlab qoladilar. Bolalarmi ilk yoshda ko'proq she'rlar o'ziga jalb qiladi, chunki ular aniq qofiyalari, ohangdorligi va musiqiyligi bilan alohida ajralib turadi.

Takror o'qishda bolalar she'r mazmunini o'zlashtirib oladilar, qofiya va ritmni his qiladilar, ayrim so'zlar va ifodalarni esda saqlab qoladilar hamda shu bilan o'z nutqlarini boyitadilar. Ushbu yoshda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash katta ahamiyatga egadir: she'r o'qishda kichkintoylarga har bir so'zni aniq aytgan holda ularni shoshmasdan talaffuz qilishni o'rgatish zarur. Bolalarda qofiyalanayotgan so'zlarga urg'u berish odati mavjud, shuning uchun tarbiyachi mantiqiy urg'ularni to'g'ri qo'yishi va bolalarning ham she'rni to'g'ri aytishlariga erishishi lozim,

Mazmuni har bir bolaga tushunarli va yaqin bo'lgan ertak hamda she'rlar o'qib bo'linganidan so'ng bolalarga ularning shaxsiy hayotidaga ana shunday holatlarni eslatib o'tish mumkin. Bu savollarga javob berar ekan, bolalar o'z fikrlarini faqat bir-ikkita oddiy gaplardan tuzadilar, lekin buning o'zi endi kelgusida ravon nutqni rivojlantirish uchun tayyorgarlikdir.

Kichkintoylarga ko'p savol bermaslik lozim, odatda ularning asarni qanday tushunganliklarini, qaysi so'zlarni esda saqlab qolganliklarini va ushbu mazmun bolaning shaxsiy tajribasi bilan qay darajada bog'lanishini aniqlovchi ikki-uchta savol berish kifoya. She'riy obrazlar yaxshi o'zlashtirilishi va unutilib ketmasligi uchun yil mobaynida bolalarga tanish hikoyalar, she'rlar, ayrim ertaklar yoki ertaklardan ritmik qatorlarni takror o'qish lozim. She'rlar va ertaklarni esda saqlab

kolish lug'atni rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bolalarning mashg'ulot davomida eshitgan so'zlari ularning faol lug'ati tarkibiga kirishiga intilish zarur. Buning uchun esa ushbu so'zlarni to'g'ri ko'rinishlarda tez-tez takrorlash lozim, bo'lmasa kichkintoy yangi so'zlarni shunchaki tovushlar uyg'unligi sifatida qabul qiladi va ularning ma'nosini tushunib yetmaydi.

Tarbiyachining vazifasi – bolalarga o'zlari aytayotgan so'zlar ma'nosini tushunishni o'rgatish, ularni boshqa so'zlar bilan birgalikda qanday qilib qo'llash mumkinligini ko'rsatishdan iboratdir. Masalan, «Novvoscha» she'rini (Novvos borar chayqalib, hansiraydi yo'lida. Voy, taxta chayqalmoqda, men ham yiqilaman-da.) O'qib bo'lgandan so'ng bolalarga yana nimalar chayqalishini ko'rsatish mumkin: novdada barg chayqalmoqda, ipga bog'langan soqqa chayqalmoqda, arg'imchoqda qiz chayqalmoqda va h.k.

Ish jarayonida badiiy adabiyot bilan tanishtirishga nisbatan shunday yondashuv tez-tez uchraydiki, bunda pedagog ertak yoki she'rni ifodali, emosional o'qib beradi va shu bilan «tanimtirish» nihoyasiga yetadi. Bolalar balkim, uning ma'nosini tushunib yetar, lekin o'qish ularning fikrlarini rivojlantirmaydi, ular tinglagan asar mazmuni va so'zlari tezda esdan chiqib ketadi. Bunda me'yor hissiga amal qilish juda muhim, ammo asar ustida ishslash, bolalar eslab qolgan so'zlar va ifodalarni takrorlashni davom ettirish juda zarurdir. Har bir mashgulotdan so'ng so'zlarni takrorlash, mustahkamlash lozim. Ularni eng turli-tuman ko'rinishlarda talaffuz qilish darkor, faqat shundagina bolalar ona tili lug'ati va tuzilishini o'zlashtiradilar, ularning faol lug'ati kengayadi, ular bu so'zlarni o'z nutqlarida qo'llay boshlaydilar.

Ayniqsa, grammatik to'g'ri nutqni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Bunda bolalarning adabiy asar mazmunidan kelib chiqib savollarga javob berishida to'g'ri grammatik shakldagi so'zlardan foydalanishini kuzatib borish lozim.

Shunday qilib, badiiy asar bilan tanishtirish nutqni har tomonlama rivojlantirishga, ya'ni tovush madaniyatiga, grammatik qatorga, lug'atga ta'sir ko'rsatadi. Ilk yoshlardan boshlaboq. ravon nutqni rivojlantirish poydevori shakllantiriladi. Bu nisbatan murakkab asarlarni qabul qilish, nutqni yanada

rivojlantirish uchun zarurdir. Bolalarga badiiy adabiyotlarni tanishtirish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida bola uch yoshga kelib adabiy rivojlanishning quyidagi ko'rsatkichlariga erishadi:

- 1 adabiy asar borasida kattalar bilan muloqot qilishdan zavq oladi, ularni qiziqib tinglaydi;
- 2 unga aytib berilayotgan yoki o'qilayotgan asarlarni chalg'imasdan, diqqat bilan tinglaydi;
- 3 takror tinglaganda tanish asarlarni, illyustrasiyalar va o'yinchoqlardagi ertaklar, hikoyalar va she'rlar qahramonlarini taniydi;
- 4 asar (sanoq she'rlar, qo'shiqlar, ertaklar) mazmunini so'z, harakat, imo-ishora bilan ko'rsatib beradi;
- 5 tanish she'rlardagi so'zlar va qatorlarni ilib olishga intiladi;
- 6 kichkintoylarga mo'ljallangan kitoblardagi illyustrasiyalarni ko'zdan kechirishga qiziqish bildiradi.

Maktabgacha kichik yoshda olamga nisbatan estetik munosabat ko'p qirrali bo'ladi. Bu endi nafaqat tabiatga va atrofni o'rab turgan tabiat muhitiga munosabat, balki insonlar olamiga – o'ziga, yaqinlariga, tengdoshlariga, boshqa kattalarga bo'lgan munosabat hamdir. Bola o'z tashqi ko'rinishini, kostyumini ko'rish va ularga baho berishni boshlaydi; qo'llari, yuzi, kiyimlarining tozaligiga e'tibor beradi; to'g'ri va ozoda ovqatlanishni o'rganadi. U muloqot va odamlar borasida nima chiroyliyu, nima xunukligini tushuna boshlaydi. Mohiyatan yagona bo'lgan estetik va axloqiy munosabatlar muayyan bola ongida va xulq-atvorida birlashadi.

Maktabgacha kichik yoshdagi bola san'atga, uning badiiy obrazlariga oshno bo'lish, badiiy faoliyatni egallab olish borasida keng imkoniyatlarga egadir. U san'at obrazlarini yaxlit va emosional qabul qilishi, ularning mazmunini oddiy anglab yetishi bilan ajralib turadi. Chunonchi, yorqin va ritmik marsh musiqasini tinglar ekan, bola eng avvalo, uning ko'tarinki kayfiyatini qabul qiladi va uning muayyan harakat xususiyati bilan aloqasini ilg'ab oladi. Badiiy qobiliyatlar tizimida emosional munosabat bildirish va sensorlik qobiliyatları bilan bir qatorda badiiy fikrlash ham qaror topadi. U badiiy obrazlarni bir-biri bilan taqqoslaydi, ularni elementlarini

ajratganlari holda ular bilan «o'ynashni» boshlaydilar. Ayni paytda ular uni to'qib to'ldiradilar, ayrim lavhalarni takomillashtiradilar, o'z ertaklarini, shu jumladan ular tomonidan ajratilgan adabiy obrazlarni to'qiydilar, badiiy asarlar asosida o'yin syujetlarini shakllantiradilar. Bolalar nafaqat u yoki bu adabiy obrazlarni ajratadilar, balki badiiy tipajlarni yagona emosional mazmun dominanta asosida umumlashtirma obrazlarni yaratganlari holda ularni birlashtiradilar.

Bolalar adabiy janrlarni farqlay boshlaydilar: ertaklar, hikoyalar, she'rlar; ular tilning tashbehlar, taqqoslashlar, giperbola kabi ayrim ifoda vositalarini ko'rishga qodirdirlar; she'riy asar kayfiyatini intonasiyalar yordamida ifodalab berishlari mumkin; humor, lirika, tantana. Bayoniylarning an'anaviy uch qismli tuzilmasi (kirish, harakatning rivojlanishi, yakun) va ularning stilistik vositalari (an'anaviy kirish formulasi, ertak yakuni, takrorlash va boshqalar) haqidagi tasavvurlar shakllana boshlaydi. Uch-to'rt yoshlarda bolalar adabiy asarlarni tanlashga qodirdirlar: ular ayrim adabiy qahramonlarni biladilar va sevadilar, o'zлari uchun muayyan asarni ajratib oladilar va doimo ularni o'qib berish yoki aytib berishni iltimos qiladilar; o'zлari ham yoqib qolgan she'riy matnlarni ko'p martalab takrorlaydilar. Besh yoshlarga kelib ayrim syujetli harakatlar va personajlarni afzal ko'rish yaqqol sezila boshlaydi. Bularning barchasi besh yoshli bolaning ancha boy adabiy tajribasi umumlashtirmalari hisoblanadi.

Makgabgacha kichik yoshdagagi bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagog ularni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishda quyidaga rivojlantirish vazifalarini amalga oshirishi lozim:

- 1 turli janr va mavzulardaga adabiy asarlarni – ertaklar, hikoyalar, she'rlarni, she'riy folkloarning kichik shakllarini tinglash, ularning mazmuniga emosional munosabat bildirish va syujetning rivojlanishini kuzatib borish qobiliyatlarini rivojlantirish;
- 2 bolalarni ayrim asarlar va ularning aynan bir xil qahramonlar bilan birlashtirilgan sikllari bilan tanishtirish;
- 3 tarbiyachi bilan birgalikda tanish asarlarni hikoya qilish, ularni to'liq yoki qisman sahnalashtirishga jalb qilish;

- 4 bolalar so'z ijodkorligi, she'riy matnlarning o'yinli va yumoristik variasiyalari uchun qulay sharoit yaratish;
- 5 bolalarning o'yin, tasvirlash faoliyatlarini badiiy obrazlar bilan boyitish;
- 6 kitobga nisbatan estetik madaniyat asari sifatida asrab-avaylash munosabatini shakllantirish. Illyustrasiyalarni mustaqil ravishda va takror ko'rib chiqish, aynan shu kitobni takror tinglash istagi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar adabiy asarlarni qabul qilishlarida va tushunishlarida ularga quyidagi holatlar xos bo'ladi:

- qahramonlarga qayg'urish va ularga hamdard bo'lish, shu tufayli bevosita tashqi ifodalangan emosionallikning pasayishi;
- voqyealar zanjirini tiklash va asar ichida hamda asarlar o'rtasida turli xil mazmunli aloqalar o'rnatish qobiliyati;
- qahramonlarning tashqi harakatlarini ko'rish va qahramonlar xulq-atvoridagi ochiq motivlarni tushunish, ularning yashirish niyatları ma'nosiga va harakatlarining nooshkora motivlariga kirishga urinish;
- hosil bo'lган voqyea bolaning shaxsiy kundalik hayotidan hikoya emas, balki ko'proq ertakka o'xshash bo'lishi uchun adabiy vaziyatni talqin qilish va o'zgartirishga urinish;
- janr asosi (ertak, hikoya, she'r) va maqbul mavzularning (hayvonlar, sehrgarlik ko'rinishlari, bolalar va boshqalar) paydo bo'lishi;
- tilning ayrim ifodali vositalarini payqash qobiliyatining paydo bo'lishi;
- adabiy asarlarning xarakterli tuzilmasi va shakli haqidagi tasavvurlarni o'z ijodida ifodalash (kompozisiyalarning uch qismliligi, adabiy qahramonlarning asosiy harakatlari va boshqalar).

Besh-olti yoshli bolalarning o'ziga xos xususiyatlari – bolalarning psixologik rivojlanishidagi ikkita bir-biriga qarama-qarshi tamoyillarning bir-biriga zid bo'lган uyg'unligadan iborat. Bir tomondan – bolalar yuqori ijodiy salohiyati bilan ajralib turadilar. Ikkinci tomondan – besh-yetti yoshli bolalarning taqlidchilikka, me'yoriylikka intilishi hammaga yaxshi ma'lum. Bola qoidalarni, harakat usullarini o'zlashtirishga intiladi va u bunga qodirdir. Yuqori baholanadigan natijalarga

erishish uchun unda obrazli stereotiplar oson shakllanadi va ular bolaga adabiy matnni talqin qilish hamda uni to'g'ri tushunish jarayonini osonlashtiradi.

Biroq adabiy qahramonlarni faqat «so'zda» tushunish va ularning harakatini axloq me'yorlari nuqtai-nazaridan baholash tasvirlanayotgan vaziyat ma'nosiga kirib borilganlikdan dalolat bermaydi. Bola «yashab ko'radigan» ziddiyatli vaziyatlarni gavdalantirish natijasidagina ularning badiiy obraz va muallif g'oyasini tushunishi mumkin bo'ladi. Bu nafaqat axloqiy nomuvofiqliklarga, balki universal bilish muammolariga ham taalluqlidir, zero badiiy asarlar ularning ko'p qirrali talqinlaridir, Maktabgacha yoshdagi bolalarda bunday tushunish ko'piicha verbal emas, balki obrazli ifodalangandir (tanlov harakatida, obrazli harakatda, suratda, o'yin syujetida, voqyealarni o'ylab topishda va boshqalarda). Bolaning individual xususiyatlari uning faoliyatning reproduktiv yoki ijodiy turlarini afzal ko'rishiga yordam beradi. Adabiy asarlar motivlari bo'yicha sahnalashtirish o'yinlari reproduksiya va ijodkorlikning estetik imkoniyatlarini o'zida birlashtirgan shakl hisoblanadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish sohasida pedagoglar va ota-onalar oldida quyidagi vazifalar turibdi:

- 1 bolalarni yuqori badiiy saviyadagi adabiyotlarga oshno qilish, ularda adabiy-badiiy taassurotlar zahirasini shakllantirish;
- 2 ifodali badiiy nutqni shakllantirish;
- 3 bolalarga kichik prozaik matnlar mazmunini emosional va ifodali tarzda yetkazish hamda kichik sherlarni yoddan aytib berishni o'rgatish. Ma'lum adabiy asarlarni sahnalashtirishda ishtirok etish.
- 4 bolalarda adabiy asarlarning (xususan, ertaklarning) o'ziga xos tuzilmasi, tipik personajlar va syujetli-mavzuli birliklari hamda ularni ijodiy qo'llash usullari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish;
- 5 asosini bolalarning adabiy obrazlarni talqin qilishi tashkil qiladigan tasavvur shakllarini rivojlantirish;
- 6 bolalarda badiiy obrazning rivojlanishi, o'zgarishi, uning ko'p qirraliligi va ko'p tomonlama bog'liqligi haqidagi tezkor tasavvurlarni shakllantirish;

- 7 bolalarda adabiyotlarni individual tarzda afzal ko'rishni rivojlantirish;
- 8 bolalarning kitobga nisbatan estetik madaniyat asari sifatidagi munosabatini rivojlantirish, ularni qulyozma kitoblar yozishga jalgilish.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni hal etish uchun pedagogik ishlar mazmuni va shart-sharoitlarini to'g'ri belgilash zarur. Ular qanday bo'lishi lozim?

Bolaning badiiy adabiyot bilan o'zaro hamkorligi uning estetik, bilish, ijtimoiy va nutqiy rivojlanish imkoniyatlarini amalga oshirish imkonini beradi. Biroq shu bilan birga faoliyatning estetik xususiyatlari buzilmasligi lozim, bolalarning imkoniyatlari esa sxematizm va taqlidchilikdan iborat bo'lib qolmasliga kerak. Ushbu maqsadda pedagog quyidagi qator usullardan foydalanishi lozim:

Bolalarning diqqat-e'tiborini alohida adabiy asarning badiiy qimmatiga – she'rlarning obrazli ifodaliligidagi, hikoyada syujetning kutilmagan rivojiga qaratish.

Bolaning adabiy asarni yoki o'zi to'qigan asarini ijro etishi (guruhsda qayta hikoya qilish, yakka tartibda ifodali o'qish va kattalar bilan dialogda o'qish) uchun emosional boyitilgan ijro muhitini yaratish. Biroq badiiy asar faqat so'z bilan aytildasdan, balki uning ayrim yorqin jihatlari bolalar va pedagoglarning birgalikdagi harakatlari natijasida sahnalashtirilishi, unga musiqiy ishlov berilishi, harakatlar, suratlar bilan ko'rsatilishi mumkin.

Pedagog bolalarga yaxshi ma'lum bo'lgan an'anaviy (hayvonlar va sehrgarlar haqida) xalq ertaklari va noan'anaviy (bolalar, tabiat hodisalari, predmetlar haqida) guruhsda o'qib chiqilgan, bolalar suratlari, variantiv syujetlar, improvizasiyalar va to'qib, oxiriga yetkazishdan iborat bo'lgan u yoki bu adabiy asarlar motivlariga oid «kitoblar» ham aynan shunday tarzda yaratilishi mumkin.

Pedagogning bolalarga o'zining qaysi adabiy asarlarni yoqtirishini ma'lum qilishi, o'zining badiiy ta'bi va aqliy faolligini namoyish qilishi ularni ijodiy rivojlantirishning eng muhim vositasi hisoblanadi.

Maktabgacha katta yoshdagagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish borasida to'g'ri amalga oshirilgan ishlar natijasida yetti yoshga kelib bolada quyidaga rivojlanish ko'rsatkichlari shakllanishi lozim:

- 1 bola o'ziga yoqgan bir nechta adabiy asarlar nomlarini aytishi mumkin;
- 2 kichik she'r yoki she'riy asardan kichik parchani ifodali o'qib berishi mumkin;
- 3 ba'zi tanlagan asarni mustaqil ravishda yoki pedagog yordamida hikoya qilib berishi va quyidagi savollarga javob berishi mumkin: u shunga o'xhash boshqa asarlarni ham biladimi? Ularning o'xhashligi nimalardan iborat? (o'xhash personajlar, syujet harakatlari);
- 4 kitobga qiziqish paydo bo'ladi: o'qilgan kitoblarni mustaqil ravishda varaqlab chiqadi, mazmunini aytib yoki o'qib beradi, uydan sevimli kitoblarini keltiradi;
- 5 ertak syujetiga mos tarzda qo'shimcha personaj kiritadi, ushbu personaj qo'shiladigan vaziyatlarni to'qib, qo'shib qo'yadi;
- 6 yaxlit ertak to'qishi mumkin, bunda u uning ehtimoliy qahramonlarini tasvirlash vositalariga tayanadi, ayni paytda ertaklarga xos mazmun-mavzu birligidan, tipik kompozisiyalar va stilistik vositalar to'plamidan ham foydalanadi.

## **2.2 TAYYORLOV GURUHI BOLALARINI HIKOYA QILISHGA O'RGATISH BO'YICHA DARS ISHLANMASI**

Dars jarayonlarida nutq o'stirish mashg'ulotlarini tashkil etishda, ayniqsa, o'quvchilarning badiiy asarlarni o'qib, hikoya qilib berishlariga katta ahamiyat beriladi. Badiiy asarlarni qayta hikoya qilib berishga o'rgatish va ularni sahnalashtirish, she'rni yod oldirish o'qituvchiga katta mahorat va mas'uliyat yuklaydi. Muallif tomonidan badiiy asar mazmuni qanchalik yorqin ifodalangan bo'lsa, unda ishtirok etuvchilarning nutqlari (gaplari) o'quvchilarga ifodali, mazmunli yetkazilsa, u bolalarni hayajonlantiradi, his-tuyg'ularining rivojlanishiga, asar qahramonlari bilan bo'ladigan voqealarning uzoq esda saqlanishiga, lug'atining boyishiga hamda nutqining grammatik jihatdan to'g'ri shakllanib borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar hech qanday qiyinchiliksiz o'qituvchining asar yuzasidan bergan savollariga javob bera oladilar, ayrim so'zlarni, jumlalarni takrorlaydilar, qahramonlarning ijobiy va salbiy tomonlarini xarakterlab beradilar, o'qituvchiga taqlid qilib, ularning ovozini o'xshatishga harakat qiladilar.

Yuqori saviyada yozilgan badiiy asarlar o'quvchilarning nutq normalarini (me'yorlarini) muvaffaqiyatlil o'zlashtirishlariga hamda tilning emotsiyal tomonlarini his etish qobiliyati rivojlanishiga, og'zaki nutqning intonatsion ifodaliligi shakllanishiga ta'sir etadi. Quyida tayyorlov guruhi bolalari ushun mo'ljallangan ertakni mashg'ulot ishlanmasi sifatida keltirdik.

### **Darsning mavzusi: UR TO'QMOQ (Tayyorlov guruhi uchun)**

#### **Mashg'ulotning maqsadi:**

- a) **ta'limiy maqsad:** bola o'qigan ertagini xulosalay olishi, o'quv tezligiga e'tibor berishi, o'qish imkoniyatlariga e'tibor berishi va ularning fikrini bir joyga jamlab, ifodali o'qish

- b) **tarbiyaviy maqsad**: o'quvchilarda do'stlik tuyg'usini mustahkamlash, yordam qo'lini cho'zishlik, o'g'irlik qilmaslikka, to'g'ri so'z bo'lishga chorlash
- c) **rivojlantiruvchi maqsad**: o'quvchilarda ertak yuzasidan bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish

**Mashg'ulotning shoiri**: O'g'ri bo'lma  
to'g'ri bo'l

**Kerakli jihozlar**: O'qish kitobi, mavzuga doir ko'rgazmali qurollar, ertak asosida chizilgan rasmlar, ertakka moslangan sahna, ularga mos kiyimchalar

**Mashg'ulotning turi**: Aralash dars

**Ertak qahramonlari**:

Boshlovchi : Laylo  
Chol : Bobur  
Kampir : Zilola  
Laylak : Alisher  
Cho'pon : Aziz  
Bolalar : Sardor, Elyor, Farhod

**Mashg'ulotning borishi**:

Tarbiyachi o'quvchilardan o'tgan mavzuni so'rab ularni rag'batlantiradi.  
So'ngra yangi mavzu boshlanadi.

Boshlovchi : Aziz bolajonlar bugun sizlar bilan biz bir ajoyib ertakni o'qiymiz, sahnalashtiramiz va ijro etamiz. Bolajonlar ertagimizning nomi  
Ur to'qmoq

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim – qadim zamonlarda Olatog' etagida bir chol bilan kampir yashar ekan. Ular parranda va hayvonlarni ovlab kun kechirar ekanlar. Kuz payti ekan.

Kunlardan bir kuni cholning tuzog'iga katta Laylak ilinibdi. Chol xursand bo'lib laylakni tuzoqdan chiqargan ekan, Laylak tilga kirib:

Alisher : ----- Ota meni qo'yib yuboring. Men hamma laylaklarning boshlig'iman, nimani so'rasangiz hammasini beraman.

Bobur :---- Seni qanday topaman? – deb so'rabdi .

Alisher :---- Mening uyim qarshingizdagi Olatog'ning orqasiga o'tib, kimdan so'rasangiz, uyimni aytib beradi.

Boshlovchi : Chol Laylakni qo'yib yuboribdi

Alisher :---- Yaxshililingizni unutmayman,

Boshlovchi :- debdi Laylak uchib ketayotib.

Bahor yaqinlashibdi. Tuzoqqa hayvonlar ilinmay qolibdi, chol Laylakvoyni eslab, erta tongdan turib yo'lga ravona bo'libdi. Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi va yo'lda qo'ylar to'dasiga duch kelibdi.

---- Kimning qo'ylari ? – deb so'rabdi u cho'pondan.

---- Laylakniki, - deb javob beribdi cho'pon.

Bobur : --- Laylakvoy menga sovg'a va'da qilgandi. Undan nima so'ray.

Aziz : Laylakdan 'ochil dasturxon " ni so'rang otaxon.

Boshlovchi : Chol Laylakvoyning uyiga yetibdi.

Bibur : ---- Assalomu alaykum laylakvoy, va'daga binoan oldingga keldim !

Boshlovchi : Shunda Laylak :

Alisher : ---- Istaganingizni so'rang, menga yaxshilik qilganlarni quruq qo'ymayman.

Bobur : ---- Menga " ochil dasturxon " ni bersang, - debdi .

Alisher : ---- Mana, oling ota.

Boshlovchi : Chol " ochil dasturxon " ni olib orqasiga qaytibdi. Yo'lida u tanish bolalarga duch kelibdi. Yo'l yurib charchagan chol bolalarga – bolalarim, mana bu " ochil dasturxon " dan xabardor bo'lib turing, men biroz mizg'ib olay – debdi.

Lekin hech qachon " ochil dasturxon " demang, - debdi.

Sardor, Elyor, Farhod : --- Xo'p otaxon.

Boshlovchi : Chol uyquga ketishi bilan bolalar :

---- “Ochil dasturxon !” – debdi, shunda dasturxon ochilib bolalarning oldida yetmish xil ovqat tayyor bo’libdi. Bolalar shoshib uni boshqa dasturxon bilan almashtirib qo'yishibdi.

Chol uyg'onib bolalarga rahmat aytib, uyiga ketibdi. Suyunib kampiriga bo'lgan voqealarni gapirib beribdi va

Bobur : ---- “Ochil dasturxon !” – debdi. Dasturxon ochilmabdi.

Boshlovchi : Chol laylak meni aldabdi – deb jahli chiqibdi.

Yana Laylakni oldiga yo'l olibdi. Yo'lda ketayotib yilqichilarga duch kelibdi. Ular cholga Laylakvoydan endi "Qaynar xumcha"ni so'rang, deyishibdi. Chol Laylakvoyning oldiga boribdi.

Alisher : ---- Sizga uana nima kerak?

Bobur: ---- Menga "Qaynar xumcha" ni bersang.

Boshlovchi : Laylak unga "Qaynar xumcha"ni beribdi.

Yo'lda chol yana bolalarni uchratibdi. Volalar xursand bo'lib:

Sardor, Elyor, Farhod : Otaxon, juda charchabsiz, biroz mizg'ib oling. Xumchangizga biz qarab turamiz.

Bobur : Bolalarim yana “qayna xumcha” deya ko’rmanglar

Sardor, Elyor, Farhod : Yo'g'-e, ota, xotirjam bo' 'ling.

Boshlovchi : Chol uyquga ketishi bilan :

\_ Sardor, Elyor, Farhod : “Qayna, xumcha!” - desa, xumchadan tillalar qaynab chiqaveribdi. Volalar uni boshqa xumcha bilan almashtirib qo'yishibdi. Boshlovchi : Chol uyqudan turib, xumchani ko'tarib kampiri oldiga boribdi:

Bobur : - Kampir, bir alomat xumcha olib keldim. Laylakvoy juda saxiy ekan.

Boshlovchi : ---Qayna, xumcha! – debdi chol. Xumcha qaynamabdi. Chol xunob bo'lib:

----Laylak meni yana laqillatibdi-da deb xafa bo'libdi. Chol yana Laylakvoyning oldiga jo'nabdi. Yo'lda yilqichilar uning ahvolini ko'rib:

---- Endi otaxon, “Ur, to'qmoq! “ni so'rang - deyishibdi. Chol Laylakvoyni oldiga borib:

Bobur: --- Laylakvoy, men sendan arzimagan bir narsa so'rayman, xolos. Menga "Ur, to'qmoq!"ni ber.

Boshlovchi : Laylak uning iltimosini qaytarmabdi. Chol "Ur, to'qmoq!"ni olib, yo'lga tushibdi. Yo'lida yana o'sha bolalarni uchratib qolibdi.

Bobur: - Men dam olay, sizlar to'qmoqqa qarab turinglar.Lekin "Ur, to'qmoq!"deua ko'rmanglar.

Sardor, Elyor, Farhod : "Xo 'r"

Boshlovchi : chol uxlashi bilan

Sardor, Elyor, Farhod: - Ur, to'qmoq! - debdi.

Boshlovchi : Shunda to'gmoqqa jon kiribdi. Bolalarni shunday do'pposlab ketibdiki, ular dodlab har tomonga qocha boshlashibdi.

Sardor, Elyor, Farhod :- Jon ota, to'qmog'ingizni to'xtating, sizning "Oshil dasturxon " ingizni ham, "Qaynar xumcha "ngizni ham qaytarib beramiz. Tavba qildik. To'qmog'ingiz toza ta'zirimizni berdi,- deb yalinib-yolvoribdi.

Bobur : --- Tur, to'qmoq -, debdi.

Boshlovchi : To'qmoq bolalarni urishdan to 'xtabdi. Volalar darrov dasturxon va xumchani olib kelib, cholga beribdi.Shol xursand bo'lib uyiga qaytibdi va kampiriga olib kelganlarini ko'rsatibdi.

Bobur : -Ochil, dasturxon! - debdi . Dasturxonda noz-u ne'mat1ar paydo bo'libdi.

Boshlovcho : Chol-kampir maza qilib ovqatlanibdilar. - So'ng chol

Bobur : ---- Qayna, xumcha! - debdi. Xumchadan tillalar qaynab chiqaveribdi.

Boshlovchi : Kampir o'zida yo'q xursand bo'libdi. Shunday qilib, chol bilan kampir qolgan umrlarini rohat - farog' atda o 'tkazishibdi.

### **Asardagi tasviriy vositalarni tahlil qilish va qahramonlarning xulq atvorini baholash maqsadida savol-javob o'tkaziladi.**

- 1.Chol Laylak bilan qandaytanishib qoldi?
2. Laylak cholga qanday va' da berdi?
3. Volalar cholni qanday qilib aldadi?
4. Chol bilan bolalarni taqqoslang. Volalar choni nima maqsadda aldadi? Chol auuor bolalarni qanday jazoladi?

5. Ertakni bo'limlarga bo'lib, qayta hikoya qiling. Har bir bo'limga mos sarlavha toping.

Savollarga bolalar javob beradilar. O'qituvchi o'quvchilarni rag'batlantiradi.  
Yakuniy qism :

**Uyga vazifa beriladi.** O'qilgan ertak haqida so'zlab berish va ertakka moslab insho yozib kelish.

## XULOSA

Kishi ehtiyojlari azaldan agar u boshqa odamlar bilan birgalikda harakat qilgan holda o'zaro munosabatga kirishgan taqdirdagina qondirilishi mumkin bo'lib kelgan. Bu hol subyektda uning uchun nima muhim va ahamiyatli ekanligini aytish ehtiyojini keltirib chiqaradi. Bola maktabgacha ta'lif muassasalariga kelib fanlarni o'zlashtirgani sayin bu jarayon yaqqol ko'zga tashlana boshlaydi hamda aniq – ravshan nutqni egallay boshlaydi, birinchi sinfning oxiriga yetganda bu holatning asosiy belgilari paydo bo'ladi. Murakkab talaffuzni talab qiladigan va oson aytilmayadigan so'zlarni talaffuz qila oladi, bir-biriga mantiqan bog'langan jumlalar tuzadi hamda matn tayyorlaydi. Bu yoshdagi bolalar so'zlardagi hamoahanglikni konkret shaxslarga – ona – ota – buviga bog'laydilar va o'quvchiga ana shu ohangdosh so'zlarning uning yaqin atrofidagi konkret shaxslar bilan bog'lanishi qaror topishiga yordamlashadilar. o'quvchi so'zni talaffuz qilarkan, istaganiga erishishga - e'tibor qilishiga, erkalatilishiga, e'tiborni tortish kabilarga erishishiga intiladi. Bundagi har bir hodisada so'z o'quvchi uchun aloqa vositasiga aylanadi. Qo'llaniladigan so'zlar soni borgan sari to'xtovsiz orta boradi va boshlang'ich sinflarning keyingi bosqichlarida o'quvchi nutqidagi so'z boyligi haddan ziyod kengayibgina qolmasdan, balki tilning grammatic shakllarini ilmiy jihatdan to'g'ri ishlatishi ham mumkin bo'lib qoladi, jumlalar murakkablashib va uzunroq qilib tuzila boshlaydi. O'quvchining tili mакtab yoshigacha bo'lgan yillar davomida boyib boradi. Maktabda o'qish, yozish, keyinroq esa til va adabiyot darslarida o'quvchilarda muloqot vositasi sifatida tilga va munosabat jarayoni sifatida nutqqa ongli munosabat shakllantiriladi. Til o'qituvchi tomonidan maxsus uyushtirilgan tahlil predmetiga aylangan holda o'quvchilar oldida ijtimoiy jihatdan shakllangan qonunlar ta'siriga bo'ysunadigan murakkab belgilar tizimi sifatida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha ta'lif muassasasi tarbiyalanuvchilarida nutqiy munosabatga kirishish malakasini hosil qilishda sinfda, asosan, badiiy adabiyot mashg'ulotlarida, shu bilan birga yozuv darslarida ham va sinfdan tashqarii ishlarni tashkil qilishning nutq o'stirish bolalarni hikoya qilishga o'rgatishda roli

kattadir. Bu o'rinda ham tarbiyachining erkin hamda aniq – ravshan nutqi bolalar nutqi va tafakkurini rivojlantirishning bиринчи darajali muhim shartlaridan hisoblanadi. Yuksak nutq madaniyati - o'qituvchi tomonidan vaqtadan oqilona foydalanishning muhim sharti hisoblanib bunda o'z vaqtida o'quvchilarni hikoya qilishga o'rgatish o'qituvchidan talab qilinadi. Demak, nutq faoliyati turli davrlarda o'ziga xos shakllanib, takomillashib boradi.

### **Foydalilanidigan asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar ro'yxati**

1. Maktabgacha tarbiyani rivojlantirish konsepsiysi. T., 1992 yil.
2. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T., "O'qituvchi", 1981 yil.
3. Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarga ta'lim – tarbiya berish. Toshkent, "O'qituvchi", 1989 yil.
4. Qodirova M.R., Qodirova F.R. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasи va metodikasi. Toshkent, 2006 yil.
5. Bolalar nutqini o'stirish metodikasi. Toshkent, 1991 yil.
6. Borodich M. "Metodika razvitiya rechi detey" Moskva, 1981 yil.
7. Jo'raqulov R. To'xtayeva Sh. "Bog'chalarning kichik guruuhlarida bolalar nutqini o'stirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar" Samarqand, 1991 yil.
8. Jo'raqulov R. "Bolalar nutqini o'stirish" Samarqand, 1994 yil.
9. Razbayeva Ye, Ahmedova X. "Nutq o'stirish metodikasi" T., 1978 yil.
10. Shodiyeva Q. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. Toshkent, 1995 yil.
11. Shodiyeva Q. Kichkintoylarni o'qish va yozishga o'rgatish. Toshkent, "O'qituvchi" – 2002 yil.
12. Shodiyeva Q. Nutq o'stirish uslubiyati. Toshkent,
13. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. Toshkent – "O'zbekiston" – 2001 yil.
14. Jo'rayev S., Qodirov H. Kichkintoylar nutqini o'stirish. Toshkent, "O'qituvchi", 1995-yil.

15. Abdullayeva Q va boshqalar. Savod o‘rgatish metodikasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1995-yil.

### **Qo‘srimcha adabiyotlar**

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, 1997 yil.
2. I.A.Karimov. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. Toshkent – 2008 yil.
3. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni. T., “Sharq”, 1997.
4. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T., “Sharq” 1997 yil.
5. Jamolxonov H. Hozirgi o’zbek adabiy tili. T., 2005 yil.
6. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. Toshkent, “Sharq” 2004 yil
7. Bolalar bog’chasida ta’lim – tarbiya programmasi. T., 1988 yil.

### **Elektron ta’lim resurslari**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.  
T.: "O'zbekiston" 1998.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent-2008.
3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risida» Qonuni. T.: 1997.
4. O'zbyekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". T.,1997.
5. Boshlang'ich sinflarning takomillashtirilgan davlat ta'lif standarti.  
Boshlang'ich ta'lif . 2006 , 5- son .
6. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh.  
Ona tili o'qitish metodikasi. T., TDPU. 2008.
7. Roziqov O., Mahmudov M., Adizov va boshqalar. Ona tili didaktikasi.  
Toshkent – Yangi asr avlodi- 2005 yil.
8. Qodirova F., Qodirova M. Bolalar nutqini o'stirish nazariyasi va  
metodikasi. Toshkent – 2006 yil.

9. Saparova R. va boshqalar. «Alifbye», T., «Ma’naviyat», 2005 yil.
10. Abdullayeva q. va boshqalar. Savod o‘rgatish darslari. T., “O‘qituvchi ”, 1996 yil.
11. G’afforova T. va boshqalar. «O‘qish kitobi», 1-sinf, «Sharq», 2004-yil.
12. Abdullayeva q. va boshqalar. «O‘qish kitobi», 2-sinf, «O‘qituvchi », 2005-yil.
13. Abdullayeva K. Diktantlar to‘plami. To‘rt yillik boshlang`ish maktablar ushun. T., “O‘qituvchi ”, 1997-yil.
14. Boshlang`ish sinflarning darsliklari. Sharafiddinov O., Abdullayeva K. va boshqalar. “Alifbye” (“Shodlik”); “Ona tili” (“Gulshan”). T. “O‘qituvchi ”, 1999-yil
15. Ikromova R. Grammatika, imlo va nutq o‘stirishdan tarqatma matyeriallar. T., “O‘qituvchi ”, 1993-yil.
16. Maqulova B. va boshqalar. Sinfdan tashhari o‘qish mashg`ulotlari. T., “O‘qituvchi ”, 1996-yil.
17. Maqulova B., Adashboyev B. “Kitobim-of tobim”. T. “O‘qituvchi ”, 1996-yil.
18. G`afforova T. va boshqalar. Savod o‘rgatish darslari; T. “O‘qituvchi ”, 1996 yil
19. Safarova R. va boshqalar. Savod o‘rgatish darslari. T. “Ma’naviyat” 2003 yil.
20. Abdullayeva Q. va boshqlar. «2-sinfda o‘qish darslari», T., «O‘qituvshi », 2004.
21. Umarova M. «3-sinfda o‘qish darslari», T., «O‘qituvshi », 2004.
22. Matshonov S. va boshqalar. «4-sinfda o‘qish darslari», T., «O‘qituvshi », 2002.
23. Ishmuhamedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari. – T.: TDPU, 2005.
24. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat – T.: Fan, 2006.

## **Elektron ta’lim resurslari**

1. <http://www.ziyonet.uz/> -O’zbekistonligi umumiy ta’lim axborot tarmog’i “ZiyoNET”
2. www. tdpu. uz
3. www. pedagog. uz
4. www. Ziyonet. uz
5. www. edu. uz